FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

GAZIYEVA MAFTUNA MUHAMMADOVNA

BADIIY MATNNING IMPLIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg'ona – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) наук

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor (DSc) of sciences

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

GAZIYEVA MAFTUNA MUHAMMADOVNA

BADIIY MATNNING IMPLIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg'ona – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4Dsc/Fil.740 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti www.fdu.uz hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Lutfullayeva Durdona Esonovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Sultonova Shoxista Maxamadjanovna** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
	Safarov Shaxriyor Safarovich filologiya fanlari doktori, professor
	Yuldashev Akmal Gulamjanovich filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning "29" aprel 2024-yil soat 10:00dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-66-02; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (74 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "16" aprel kuni tarqatildi. (2024-yil "16" aprel dagi 5 raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.M.Iskandarova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M.T.Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari nomzodi, professor

A.Mamajonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida olamni idrok etish va uni tilda aks ettirishga asoslangan kognitiv-pragmatik kategoriyalar matn lingvistikasining muammolari sifatida e'tirof etilmoqda. Har qanday tilga xos birlamchi va ikkilamchi modellashgan sistemalar o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlar lisoniy va badiiy kategoriyalar haqidagi nazariyalar uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Natijada badiiy matnga oid eksplitsit va implitsit mazmuniy strukturalar, xususan, matn va badiiylik kategoriyasi, badiiy tafakkurga asoslangan mazmun idroki va ifodasida interpretatsiyalanuvchi birliklarning implikativ-pragmatik aspektiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo tilshunosligida olamning konseptual va lisoniy manzarasini anglashda matn tadqiqiga implikativ-pragmatik jihatdan yondashuv muhim masalalardan biri hisoblanmoqda. Ijtimoiy hayotda yuz berayotgan ma'lum bir voqelikning badiiy matnda ifodalanishi va uni yuzaga chiqaruvchi lisoniy birliklarning leksik-semantik va pragmatik mazmuni kommunikatsiya jarayonida axborot uzatish, qabul qilish, qayta ishlash va undan ma'lum maqsadlarda foydalanish imkonini yaratmoqda. Bu esa barcha uslublarga xos matnlarda bo'lgani kabi, badiiy matnlarni ham turli fanlar kesishgan nuqtasida tadqiq etish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu bois, badiiy matnning kognitiv-pragmatik, implikativ xususiyatlarini matn lingvistikasi va pragmatikasi doirasida ilmiy asoslash eng maqbul yo'l sanaladi.

O'zbek tilshunosligida bugungi kunda til tadqiqiga antropotsentrik tamoyil asosida yondashilib, matn hamda uning lingvistik tahlili masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu muammo doirasida qator izlanishlar olib borilishi natijasida tilshunoslikning yangi-yangi sohalari rivojlanmoqda. Keyingi yillarda matn va uni yuzaga chiqaruvchi til birliklari lingvistik aspektda keng miqyosda o'rganildi. Lekin shunday bo'lsa-da, tilshunosligimizda implikativ-pragmatik tizim tarkibidagi birliklarning o'rni, ularning o'ziga xos xususiyatlari, hosil bo'lish usullari, lingvopoetik, lingvoestetik hamda pragmatik jihatlari monografik planda tadqiq etilmadi. "O'zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichi – milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish"[1] vazifasi o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish maqsadida tilshunoslikda matn implikativ birliklari tahlilini amalga oshirish implikativ-pragmatik tizimni tashkil etuvchi birliklarning inson omili bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan antropotsentrik xususiyatlarini yoritish, tagma'no va unga yondosh hodisalar interpretatsiyasini tadqiq etish qonuniyatlarini, shuningdek, fikrni tagma'no usuli orqali ifodalash, uning proza va poeziyada qo'llanilishi kabi ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4794-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги "Ўзбекистон Республикасининг "Давлат тили ҳақида"ги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида"ги ПҚ-4479-сон қарори. https://lex.uz/docs/4664611?type=doc.

keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari; "2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi" hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[2]. Jahon tilshunosligida badiiy matnning implikativ-pragmatik xususiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar yuzasidan dunyodagi yirik ilmiy markazlar, oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Moskva davlat universiteti, Moskva davlat lingvistika universiteti, Sankt-Peterburg universiteti, Qozon davlat universiteti, Oltoy davlat universiteti, Sibir federal universiteti, D.I.Mendeleyev nomidagi Tobol pedagogika instituti (Rossiya), Varshava universiteti (Polsha), Indiana universiteti, Chikago universiteti, Kolumbiya universiteti (AQSH), Amsterdam universiteti (Niderlandiya), Leypsig universiteti (Germaniya), Kembridj universiteti (Buyuk Britaniya), Kopengagen universiteti (Daniya), Jeneva universiteti (Shveysariya), Xo'jand davlat universiteti (Tojikiston), Al-Forobiy nomidagi Qozog'iston milliy universiteti (Qozog'iston), shuningdek, O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Samarqand davlat chet tillari instituti, Samarqand davlat universiteti, Andijon davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti (O'zbekiston)da tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jahon tilshunosligida badiiy matnning implikativ-pragmatik xususiyatlari tadqiqiga oid izlanishlardan, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: matn lingvistikasining umumiy masalalari, badiiy matnda modellashtirilgan olam manzarasi, olamning konseptual, lisoniy hamda badiiy manzaralari, implikatsiya va inferensiya masalalari, tilning implikativ tuzilishi muammolari, badiiy matnda tagma'noning lingvoestetik xususiyatlari, implikativ birliklarning umumiy va differensial xususiyatlari (Moskva, Sankt-Peterburg, Qozon, Oltoy, Sibir, Tobol universiteti, Rossiya), poetikaning an'anaviy muammolari va matn nazariyasi

---

[2] Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi www.msu.ru, www.linguanet.ru, www.spbu.ru, www.kpfu.ru, www.altspu.ru, www.sfu-kras.ru, www.uw.edu.pl, tobolsk.utmn.ru, www.bloomington.iu.edu, www.uchicago.edu, www.columbia.edu, www.uva.nl, www.uni-leipzig.de, www.cam.ac.uk, www.ku.dk, www.unige.ch, www.hgu.tj, www.kaznu.kz, www.tsuull.uz, www.samdchti.uz, www.samdu.uz, www.adu.uz, www.fdu.uz va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

(Varshava universiteti, Polsha), matnning lingvistik nazariyasi, matn sintaksisi, generativ grammatikada gap va kontekstual munosabat, grammatika va matn tilshunosligi (Leypsig universiteti, Germaniya), nutqiy asar tasnifi va tavsifi masalalari, lingvistik tasvir tizimida gapga xos funksionallik muammolari, lisoniy birliklarning eksperimental tadqiqi (Indiana, Chikago, Kolumbiya universiteti, AQSH), zamonaviy texnologiyalarga asoslangan eksperimental metodlar uchun dasturlar, tilning intonatsion sistemasiga oid eksperimental tahlillar (Amsterdam universiteti, Niderlandiya), matn pragmatikasi, presuppozitsiya (Kembridj universiteti, Buyuk Britaniya), semiotika va lisoniy semiologik paradigma, assotsiatsiya va interpretatsiya, semiologik semantika, eksplitsit va implitsit kategoriyalar (Jeneva universiteti, Shveysariya), kommunikativ intensiya, muallifning individual mahorati va idiostil (Qozog'iston milliy universiteti, Qozog'iston), matn lingvistikasining umumiy tavsifi (Xo'jand davlat universiteti, Tojikiston), bolalar nutqida deyktik vazifa bajaruvchi til birliklari, presuppozitsiya, konnotatsiya va baho munosabatining ifodalanishi, implikativ birliklarning kognitiv, pragmalingvistik xususiyatlari hamda badiiy matnda implikativ-pragmatik birliklarning lingvoestetik jihatlari asoslangan (O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Samarqand davlat chet tillari instituti, Andijon davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston).

Dunyo tilshunosligida badiiy matnning mazmuniy sathi, xususan, implikativ-pragmatik birliklarni kompleks o'rganish masalalari bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: olamning konseptual, lisoniy manzarasini tilning implikativ birliklari tahlili asosida yoritish, mavjud implikativ-pragmatik birliklarning integral va differensial xususiyatlarini aniqlash, ularning poetik-estetik funksiyalarini ijtimoiy omillar bilan bog'liqlikda ochib berish, implikativ-pragmatik birliklarni semiologik tamoyillarga asosan tizimli va kompleks o'rganish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Matn va uning semiologik jihatlari jahon tilshunosligida keng doirada o'rganilgan. Badiiy matn va uni yuzaga chiqaruvchi til birliklari hamda kommunikatsiya masalalari tadqiqi bilan tilshunos olimlar X.Izenberg, V.Dressler, T.van Deyk, A.Vejbiska, A.Mamajonov, E.Qilichev, M.Hakimov, M.Yo'ldoshev, M.Qurbonova, S.Boymirzayeva, M.Abdupattoyev[3] va boshqalar shug'ullanganlar.

Badiiy matn mazmuniy strukturasi bilan bog'liq "ifodaning eksplitsit mazmuni"[4], "eksplikatsiya"[5], "eksplitsit va implitsit[6]", "yuqori va tub struktura[7]"

---

[3] Изенберг Х. О предмете лингвистической теории текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.43-57; Дресслер В. Синтаксис текста // Новое зарубежной лингвистике. Выпуск 8. – М.: Прогресс, 1978. – С. 111-138; Дейк ван Т. Вопросы прагматики текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.259-337; Вежбицка А. Метатекст в тексте // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С.402-424; Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Тошкент, 1989; Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1993; Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро, 2000; Боймирзаева С. Матн мазмунида темпораллик семантикаси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2009; Qurbonova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014; Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн назарияси. – Фарғона, 2016.

[4] Долинин К. А. Имплицитное содержание высказывания // Вопросы языкознания. – 1983. – № 6. – С. 37.

[5] Воронушкина О.В. Виды скрытых смыслов и спопсобы их экспликации // https://journals-altspu.ru/vestnik/article/download/51/50/199; Алексейцева Т.А. Экспликация или бесконечное порождение

oshkora va yashirin darajadagi fikrlar[8], "so'zma-so'z, aniq, nazarda tutilgan, o'ylangan[9]", "lisoniy vositalar orqali ifodalangan yashirin fikrlar, lisoniy vositalar ortidagi fikrlar[10]", "intensional, nointensional va konvensional[11]", "yashirin grammatik kategoriyalar", "implitsit ifodalar"[12] yo'nalishiga oid tadqiqotlar ko'zga tashlanadi. Implitsitlik kategoriyasi haqidagi dastlabki fikrlar rus tilshunosi K.A.Dolininga tegishli bo'lib, u bu masalani ifodaning mazmuniy strukturasi bilan bog'laydi[13]. Lingvokognitiv modellarga muvofiq tarzda implitsitlik hodisasining kognitiv shakllarini quyidagi tartibda ajratish mumkin: 1) implitsit bilim; 2) implitsit ma'no; 3) implitsit fikrlar[14].

Ilmiy adabiyotlar[15]da implikativ birliklar lingvistika va adabiyotshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida qaralishi kuzatiladi. Bu holat badiiy matn tabiatining yaxlit estetik hodisa ekanligi bilan bog'liqdir. She'riy matnlarda tagma'noning qo'llanishi, unga xos lingvistik xususiyatlar L.Y.Ginzburg, I.Y.Mostovskaya, A.F.Losev, L.A.Novikov[16] asarlarida alohida tahlilga tortilgan.

Fikrlarni tagma'no usulida ifodalashning semantik va lingvopoetik jihatlari I.V.Arnold, N.S.Bolotnova, G.V.Vekshin, I.R.Galperin, K.A.Dolinin, L.A.Golyakova, L.G.Kayda, T.P.Karpuxina, M.N.Kojina, G.V.Kolshanskiy, Z.P.Kulikova, N.A.Kupina, V.A.Kuxarenko, L.A.Isayeva, V.V.Odinsov, T.I.Silman, I.A.Solodilova, I.F.Fomenko, I.N.Chepligina, V.S.Chulkova, E.I.Lelis, A.Nurmonov, N.Mahmudov, Sh.Safarov, M.Hakimov, D.Lutfullayeva,

смысла // https://cyberleninka.ru/article/n/eksplikatsiya-ili-beskonechnoe-porozhdenie-smysla; Худяков А.А. К проблеме языковых средств экспликации смысла высказывания // http://professor-hudyakov.ru/pdf/2001-explication.pdf

[6] Бакланова Е.А. Слово и имплицитный смысл в ранних рассказах В.В.Набокова: на материале сборника "Возвращение Чорба": Дисс. ... канд. филол. наук. – Томск, 2006.

[7] Купина Н. А. Смысл художественного текста и аспекты лингвистического анализа. – Красноярск: Изд-во Красноярского ун-та, 1983.

[8] Лелис Е.И. Подтекст как лингвоэстетическая категория в прозе А.П.Чехова. – Ижевск: Удмуртский университет, 2013. – С. 15.

[9] Овсянникова Е. В. Основные функции имплицитных смыслов в высказываниях и текстах: на материале англоязычной прозы: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1993.

[10] Исаева Л. А. Виды скрытых смыслов и способы их представления в художественном тексте: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Краснодар, 1996.

[11] Масленникова А. А. Лингвистическая интерпретация скрытых смыслов. – Санкт- Петербург: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 1999.

[12] Bu haqida qarang: Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986, 6-сон. – В. 28.

[13] Долинин К.А. Имплицитное содержание высказывания // Вопросы языкознание. – 1983. – № 6. – С. 37.

[14] Ермакова Е.В. Имплицитность в художественном тексте (на материале русскоязычной и англоязычной прозы психологического и фантастического реализма): Автореф. дисс. ...док. филол. наук. – Саратов, 2010. – С. 10.

[15] Ларин Б. А. Эстетика слова и язык писателя. – Л.: Худож. лит., 1974; Виноградов В.В. О языке художественной прозы. – М.: Наука, 1980; Винокур Г.О. Избранные работы по русскому языку. – М.: Учпедгиз, 1959; Винокур Г.О. Филологические исследования: лингвистика и поэтика. – М.: Наука, 1990; Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М.: Высш. шк., 1991; Винокур Г. О. Об изучении языка литературных произведений// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: антология. – М., 1997. – С. 178-201.

[16] Гинзбург Л. Я. О лирике. – М.: Интрада, 1997; Мостовская И. Ю. Существует ли подтекст в лирическом стихотворении. // Интерпретация художественного текста в языковом вузе: межвуз. сб. науч. тр. – Л., 1981. – С. 48-56; Лосев А.Ф. Проблема символа в связи с близкими к нему литературоведческими категориями // Известия АН СССР, серия литературы и языка. – 1970. – Т. XXIX. – № 5. – С. 385; Новиков Л. А. Художественный текст и его анализ. – М.: Едиториал УРСС, 2003.

S.Boymirzayeva, A.Koʻchiboyev, M.Qurbonova [17] kabi tilshunoslarning tadqiqotlarida koʻzga tashlanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda implitsit ifodalarga oid umumiy nazariya toʻliq yaratilmagan. Badiiy matn mazmuniy tuzilishida yashirin fikrlarning roli aniqlanmaganligi, mazkur masalaga yondosh hodisalarning umumiy va farqli belgilari, implikativ mazmuniy struktura birliklarining oʻzaro chegaralari masalasi asoslanmaganligi, "umume'tirof etilgan definitsiya" [18] mavjud emasligi ushbu tadqiqot ishiga ehtiyoj yuqoriligini koʻrsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Fargʻona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy yoʻnalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi badiiy matn mazmuniga oid eksplikativ va implikativ birliklarning struktur-semantik, funksional-pragmatik, poetik va lingvoestetik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

badiiy matnning kategorial xususiyatlariga oid tadqiqotlarni umumlashtirish asnosida matn mazmuniga xos eksplitsitlik va implitsitlik paradigmalarini belgilash;

---

[17] Арнольд И. В. Импликация как прием построения текста и предмет филологического изучения // Вопросы языкознания. – 1982. – № 4. – С. 83-91; Болотнова Н. С. Художественный текст в коммуникативном аспекте и комплексный анализ единиц лексического уровня. – Томск: Изд-во Том. ун-та, 1992; Векшин Г. В. Очерк фоностилистики текста: звуковой повтор в перспективе смыслообразования. – М.: МГУП, 2006; Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: КомКнига, 2007; Долинин К. А. Имплицитное содержание высказывания // Вопросы языкознания. – 1983. – № 6. – С. 37-47.; Голякова Л. А. Онтология подтекста и его объективация в художественном произведении: Дисс. … д-ра филол. наук. – Пермь, 2006; Кайда Л. Г. Стилистика текста: от теории композиции – к декодированию. – М.: Флинта, 2005; Карпухина Т. П. Морфемный повтор в художественном тексте в свете общеэстетической теории игры. – Хабаровск: ДВГГУ, 2006; Кожина М. Н. Стилистика русского языка. – М.: Флинта: Наука, 2012; Колшанский Г. В. О природе контекста // Вопросы языкознания. – 1959. – № 4. – С. 47-49; Куликова З. П. Повтор как средство экспрессивности и гармонизации поэтических текстов М. Цветаевой и Р. М. Рильке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2007; Купина Н. А. Структурно-смысловой анализ художественного произведения. – Свердловск: Изд-во Урал. ун-та, 1981; Купина Н. А. Смысл художественного текста и аспекты лингвистического анализа. – Красноярск: Изд-во Красноярского ун-та, 1983; Кухаренко В. А. Интерпретация текста. – М.: Просвещение, 1988; Исаева Л. А. Виды скрытых смыслов и способы их представления в художественном тексте: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Краснодар, 1996; Одинцов В. В. Стилистика текста. – М.: ЛИБРОКОМ, 2010; Сильман Т. И. Подтекст – это глубина текста // Вопросы литературы. – 1969. – № 1. – С. 89-102; Сильман Т. И. Подтекст как лингвистическое явление // Научные доклады высшей школы. Филологические науки. – 1969. – № 1. – С. 84–90; Солодилова И.А. Смысл художественного текста. Словесный образ как актуализатор смысла. – Оренбург: ГОУ ОГУ, 2004; Фоменко И. В. Практическая фонетика. – М.: Издательский центр "Академия", 2006; Чеплыгина И.Н. Повтор как структурное средство актуализации в языковой картине мира В. Набокова. – Ростов-на-Дону: ИУБиП: Синтез технологий, 2002; Чулкова В.С. Многочленный стилистический прием как одно из средств интеграции текста: Дисс. … канд. филол. наук. – М., 1978; Лелис Е.И. Подтекст как лингвоэстетическая категория в прозе А.П.Чехова. – Ижевск: Удмуртский университет, 2013; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008; Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986, № 6. – Б. 28-32; Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986, № 6. – Б. 42-45; Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2001; Боймирзаева С. Матн модаллиги. – Тошкент: Фан, 2010; Кўчибоев А. Матн прагматикаси. – Самарқанд, 2015; Курбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. ... автореф. – Тошкент, 2018.

[18] Лелис Е.И. Подтекст как лингвоэстетическая категория в прозе А.П.Чехова. – Ижевск: Удмуртский университет, 2013. – С. 5.

matn mazmuni orqali ifodalangan olamning konseptual va badiiy-lisoniy manzarasi assotsiatsiyasida kognitiv-pragmatik interpretatsiya mexanizmlarini aniqlash;

badiiy matnning eksplikativ va implikativ kategoriyalarini ajratish;

badiiy matn mazmuniy tuzilishida implikativ birliklarning tipologik tasnifini amalga oshirish;

badiiy matn mazmuniy tuzilishini murakkablashtiruvchi implikativ birliklar yuzasidan eksperimental tadqiqotlar o'tkazish orqali implitsit tizimga oid hodisalarni farqlash;

badiiy matnga tegishli yashirin fikrlar eksplikatsiyasi hamda umumiy bilim fondi orqali lisoniy sistema implikatsiyasiga oid jarayon mexanizmlarini belgilash;

tagma'noning sistem-struktur xususiyatlari, hosil bo'lish usullarini aniqlash;

implikativ birliklarning integral va differensial belgilarini izohlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida badiiy matnning implikativ-pragmatik birliklari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini badiiy matn mazmuniga oid implikativ birliklarning struktur-semantik, funksional-pragmatik, poetik va lingvoestetik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsiflash, tasniflash, komponent tahlil, lingvopoetik, lingvopragmatik, lingvoestetik hamda eksperimental tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

matn kategoriyalari, badiiy matnning interpretatsion, assotsiativ xususiyatlari, mentalingvistik tizimga oid fikr va konseptual tushunchalar mohiyati ochilib, ularga xos eksplitsit, implitsit ifodalar, lisoniy sistema elementlarining kognitiv, pragmatik, stilistik, estetik kabi funksiyalari lingvokognitiv, pragmalingvistik jihatdan asoslangan;

matn mazmuniy sathining differensiatsiyalanishi, badiiy matnda fikrning implikativ shaklda namoyon bo'lishi, implitsitlik paradigmasi tizimida tagma'no, presuppozitsiya, allyuziya, inferensiya kabi hodisalar quyi mazmuniy sathga oid birliklar ekanligi aniqlangan;

badiiy matnda implikativ birliklarning tipologik tasnifi amalga oshirilib, ular ifoda genezisi va shakllanish usuliga ko'ra o'zaro farqlanib, tagma'noning sistem-struktur xususiyatlari, hosil bo'lish usullari stilistik-semantik va pragmatik aspektda dalillangan;

muloqot jarayonida fikrning yashirin qismlari lisoniy vositalar bilan eksplikatsiyalanishi, implitsit kategoriyalarga mansub bo'lgan yashirin fikrlar kommunikantlarning umumiy bilim fondi orqali lisoniy sistemada implikatsiyalanishi, muloqot jarayonida matnning umumiy mazmuniga oid eksplikativ va implikativ fikrlar interpretatsiyasiga ehtiyojning mavjudligi nazariy jihatdan dalillangan;

gap yoki matnga doir yashirin grammatik kategoriyalar umumiy mazmuniy strukturaning mukammal bo'lishi, yashirin grammatik kategoriyalar tizimiga oid kognitiv mexanizmlar har qanday tilda shaklning oshkora yoki yashirin mazmun ifodasi uchun xizmat qilishi, natijada yashirin grammatik kategoriyalar tizimidagi

10

implitsit birliklar eksplikatsiyalangan lisoniy sistemaga o'tishi presuppozitsiyaga oid lisoniy indikatorlarning eksperimental kuzatuv usuli orqali isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

implikativ-pragmatik birliklarning pragmalingvistika sohasi uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, shuningdek, matn lingvistikasi, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvopoetika, lingvoestetika bo'yicha yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

"Pragmalingvistika", "Matn tilshunosligi", "Kognitiv tilshunoslik" fanlari bo'yicha yaratilgan, yaratilajak darslik va qo'llanmalar, hozirgi terminologik, o'quv lug'atlarning yanada mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

"Badiiy matnning implikativ-pragmatik xususiyatlari" monografiyasi nashr qilingan;

filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, magistrantlar, ilmiy tadqiqotchi va soha mutaxassislarining matnning yuqori va quyi mazmuniy sath birliklarining struktur-semantik, uslubiy-funksional, pragmatik va lingvoestetik tadqiqiga doir bilimlarini boyitishga amaliy jihatdan xizmat qilishi dalillangan;

badiiy matn mazmuniy sathiga oid eksplitsit va implitsit birliklarni aniqlash va ularni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar uchun nazariy manba bo'lib xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarning aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, xulosalarning zamonaviy lingvistik tahlil metodlari bilan asoslanganligi, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, mavzuning jahon tilshunosligining ustuvor ilmiy konsepsiyalari asosida o'rganilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati matn yuqori va quyi mazmuniy sath birliklarining struktur-semantik, uslubiy-funksional, pragmatik va lingvoestetik aspektda tadqiq etishning nazariy asoslari belgilab berilganligi, o'zbek tilida fikrni tagma'no orqali berishning usul va tamoyillari ilmiy jihatdan asoslanganligi, badiiy matndagi implikativ birliklar, jumladan, tagma'no va unga yondosh hodisalarning umumiy va xususiy belgilarini aniqlashga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati natijalarning stilistika, matn lingvistikasi, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvopoetika hamda lingvoestetika bo'yicha yaratiladigan darslik va qo'llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi bilan belgilanadi, dissertatsiya materiallari zamonaviy tilshunoslikka oid mavjud lug'atlarni boyitishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Badiiy matnning implikativ-pragmatik birliklari tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

muloqot jarayonida fikrning yashirin qismlari lisoniy vositalar bilan eksplikatsiyalanishi, implitsit kategoriyalarga mansub bo'lgan yashirin fikrlar kommunikantlarning umumiy bilim fondi orqali lisoniy sistemada implikatsiyalanishi, muloqot jarayonida matnning umumiy mazmuniga oid

eksplikativ va implikativ fikrlar interpretatsiyasiga ehtiyojning mavjudligi haqidagi natija va xulosalaridan 2020-2021-yillar "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari (elektron lug'atlar) to'plamini yaratish" mavzusidagi FZ-2019081663 raqamli fundamental loyihani bajarishda, xususan, "O'zbek folklor san'ati terminlarining qisqacha o'zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha izohli lug'ati"ni yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi O'zbekiston davlat Xoreografiya akademiyasining 2023-yil 9-iyundagi 1/04-63-son ma'lumotnomasi). Natijada muayyan xalqning urf-odati, siyosiy-ijtimoiy va turmush tarziga ishora qiluvchi implikativ ifodalarning deyktik funksiyasiga oid ma'lumotlar asosida loyiha doirasida yaratilgan lug'atning mukammallashuviga erishilgan;

matn mazmuniy sathining differensiatsiyalanishi, badiiy matnda fikrning implikativ shaklda namoyon bo'lishi, implitsitlik paradigmasi tizimida tagma'no, presuppozitsiya, allyuziya, inferensiya kabi hodisalar quyi mazmuniy sathga oid birliklar ekanligi to'g'risidagi xulosa va takliflardan "Mahalla va oila" ilmiy tadqiqot institutining JHBL-20-sonli "Oila, mahalla va gender tengligi mavzusida badiiy asarlarning elektron korpusini yaratish" ("Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 5-sentabrdagi 01-09/1612-son ma'lumotnomasi) nomli ilmiy-tadqiqot loyihasida foydalanilgan. Natijada badiiy matnlarga xos real, konseptual tagma'noli axborotlar loyiha materiallarini, xususan, umumiy mazmun haqidagi ma'lumotlarni to'ldirishga, loyiha doirasida yaratilgan lug'atning mukammallashuviga xizmat qilgan;

gap yoki matnga doir yashirin grammatik kategoriyalar umumiy mazmuniy strukturaning mukammal bo'lishi, yashirin grammatik kategoriyalar tizimiga oid kognitiv mexanizmlar har qanday tilda shaklning oshkora yoki yashirin mazmun ifodasi uchun xizmat qilishi, natijada yashirin grammatik kategoriyalar tizimidagi implitsit birliklar eksplikatsiyalangan lisoniy sistemaga o'tishi, presuppozitsiyaga oid lisoniy indikatorlarning eksperimental tadqiqiga doir ma'lumotlardan "O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plamida e'lon qilingan "Intonatsiyaning dolzarb masalalari" (Toshkent: TDO'TAU, 2019. – B. 26-31) mavzusidagi maqoladan BV-Atex-2018-(143) raqamli "Ko'zi ojiz shaxslar uchun kompyuter texnikasidan foydalanish, matnlarni o'qish va yozish imkonini beruvchi o'zbek tiliga asoslangan gapiruvchi dasturiy ta'minot va ovoz sintezatorini ishlab chiqish" davlat amaliy granti loyihasi doirasida "UzNutq Sintezator" kompyuter dasturini yaratishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 8-sentabrdagi 01/10-1691-son ma'lumotnomasi). Ushbu maqolaga loyiha doirasida elektron matnlarni adabiy talaffuz me'yorlariga muvofiq tarzda ovozli xabarga aylantiruvchi o'zbek nutq sintezatori lingvistik ta'minoti va audioma'lumotlar bazasini shakllantirishda ilmiy manba sifatida murojaat qilingan. Natijada badiiy nutq idroki va assotsiatsiyasi ta'minoti, badiiy matn mazmunini interpretatsiya qilish, lingvistik indikatorlar hamda ularning eksperimental tahlili yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqot xulosalari loyiha ma'lumotlarining mukammallashuviga xizmat qilgan;

matn kategoriyalari, badiiy matnning interpretatsion, assotsiativ xususiyatlari, mentalingvistik tizimga oid fikr va konseptual tushunchalar mohiyati, ularga xos eksplitsit, implitsit ifodalar, lisoniy sistema elementlari estetik funksiyalarining lingvokognitiv, pragmalingvistik tadqiqi asosida olingan xulosa va takliflardan "Pragmalingvistika asoslari" darsligini tayyorlashda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-son buyrug'iga asosan 418-045 raqamli ruxsatnoma). Natijada implikativ birliklar, ularning matn mazmuniy sathida lisoniy vositalar orqali oshkora yoki yashirin tarzda ifodalanishiga doir ilmiy qarashlar hamda mazkur tushunchalarga oydinlik kirituvchi misollar darslikning ilmiy-nazariy jihatdan mukammallashuviga xizmat qilgan;

implikativ birliklarning matn mazmuniy strukturasini shakllantirishga xizmat qilishi, ularning badiiy matn tarkibida milliy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo'lishi, matnni hosil qilish bilan bog'liq oshkora va yashirin kategorial belgilar o'ziga xos alohida tizim sifatida boshqa birliklardan farq qilishiga doir ilmiy natija va xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi O'zbekiston teleradiokanalining "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" eshittirishlari ssenariysini yozishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali"ning 2023-yil 17-iyundagi 02-37-950-son ma'lumotnomasi). Natijada yashirin fikr, ma'no va bilimlarga oid ilmiy-amaliy qarashlar asosida tayyorlangan radiodasturlarning mazmunan mukammallashuviga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola (13 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 250 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, ishonchliligi, aprobatsiyasi, e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Badiiy matn kategoriyalari"** deb nomlangan. Bobning **"Badiiy matn va tilning estetik funksiyasi"**ga bag'ishlangan birinchi faslida jahon tilshunosligida badiiy matnning estetik vazifalariga oid tadqiqotlar tarixi qisqacha bayon qilingan. Tadqiqotning

konseptual asoslari tilshunos olimlarning gʻoya va qarashlari asosida shakllantirilgan. Xususan, semantik hodisaga nisbatan qoʻllanuvchi "logik forma" (V.Vundt, M.V.Belyayev), "vakil", "etimon", "ishora" (A.A.Potebnya), "genetik ma'no" (V.A.Bogorodiskiy), "ichki belgi (ya'ni obraz)" (L.A.Bulaxovskiy), "ideologik semantika" (V.I.Abayev) haqidagi qarashlarga [19], Sh.V.Sherbaning badiiy asar tilini oʻrganishdagi lingvoestetik yondashuvi, G.O.Vinokurning "lisoniy borliqqa asoslangan maxsus modus"da poetik til nazariyasi, V.V.Vinogradovning matnda fikrlar oʻrnining kengayishi va yangi fikrlarning hosil boʻlishi uchun badiiy asar formasining muhimligi toʻgʻrisidagi nazariyalari[20], F.de Sossyurning til va nutq konsepsiyasi, A.Nurmonov va N.Mahmudovlarning tilning poetik-estetik funksiyalari haqidagi ta'limotlariga asoslanildi.

Tilning badiiy-estetik tomoni A.A.Potebnya, B.Kroche, G.Shpeta, B.A.Larin, R.O.Yakobson, V.V.Vinokur, Y.Mukarjovskiy, D.N.Shmelev, R.A.Budagov va boshqalarning asarlarida u yoki bu darajada oʻz ifodasini topgan"[21]. Til va nutqqa nisbatan "estetik"likni soʻzlovchi yoki yozuvchining faqat nimani gapirayotganligi va nima haqida yozayotganligigagina emas, balki qanday gapirayotganligi va qanday yozayotganligiga nisbatan belgilash kerak. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, fikrni ta'sirchan va obrazli ifodalash mohir ijodkorlarga, notiqlik san'ati maktabining yirik dargʻalariga xos boʻlgan xususiyatdir. Ular tildan ustalik, mohirlik bilan foydalanish evaziga oʻz fikrlarini nazmda quyma satrlarda, nasrda esa qisqa va ravon jumlalarda ravshan va muxtasar tarzda ifodalay oladilar. Fikrni boshqalar anglay oladigan, qiynalmay tagiga yeta oladigan, kitobxon asar mazmunini teran anglashdan tashqari lazzatlana oladigan tarzda yozish tilning jozibasi va latofatini koʻrsata olish mahoratini talab qiladi. Estetik funksiyaning shu xususiyati bilan adabiy til badiiy matnda oʻzining bor boʻyini koʻrsata oladi.

K.Fossler lingvoestetika haqida "...intuitsiya va estetik did tilning strukturasini aniqlashga xizmat qiladi.., estetika bu – ruh, intuitsiya ifodasi haqidagi fan, til esa bu oʻzlikning ma'naviy ifodasidir. U til estetikasi mohiyatini barcha nafis estetik san'atlarning boshlanishi, deb tushuntiradi. Raqs – bu jestlar tili, musiqa – nozik ohang (ton)lar, naqsh va rassomlik san'atida – ranglar va chiziqlar, barcha tillarning tili bu poeziyadir. Hozirgi tilshunoslikda barcha sohalar faqat ikkilamchidir, tilning poetikligi esa bu uning funksiyalaridan biridir"[22]. Ana shu fikrlar asosida til aloqa vositasi boʻlibgina qolmay, kommunikativ, akkumulyativ, ekspressiv, estetik, poetik funksiyalarni ham bajaradi, degan xulosani berish kerak. Tilning estetik funksiyasi ijodkor tomonidan yaratilgan badiiy asarlarda aniq koʻzga tashlanadi.

Lisoniy birliklarning estetik xususiyatlari obrazli assotsiativ tasavvurlarga asoslanadi. Lisoniy elementlarning estetik funksiyalari kutilmagan fikr, kutilmagan goʻzal ma'no ifodasi orqali yuzaga chiqadi. Tilning estetik funksiyasida asosiy

---

[19] Bu haqida qarang: Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – Б. 152.

[20] Bu haqida qarang: Лелис Е.И. Подтекст как лингвоэстетическая категория в прозе А.П.Чехова. – Ижевск: Удмуртский университет, 2013. – С. 5-6.

[21] https://cyberleninka.ru/article/n/k-probleme-estetiki-yazykovyh-edinits/viewer murojaat sanasi: 15.08.2023.

[22] Bu haqida qarang: Приорова И.В. Об эстетике, норме и системе языка: дискуссия без противоречий в кратком изложении трех лингвистических концепций XX века // https://vestnik-rosnou.ru/sites/default/files/10_1.pdf (murojaat sanasi: 15.08.2023).

e'tibor ma'lum bir xabarning o'ziga xos ifoda bilan berilishida, deb baholanadi[23]. Demak, estetika nafaqat falsafiy kategoriya, balki u badiiylik kategoriyalaridan biri bo'lib, lingvistikaning tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. N.Mahmudovning ta'kidlashicha, bu masala bilan dastlab italyan filosofi va siyosiy arbobi Benedetto Kroche shug'ullangan. U nazariy jihatdan tilshunoslikni estetika bilan, "go'zallik haqidagi fan" bilan aynan tenglashtiradi... Estetik kategoriyalar qanchalik individual bo'lsa, lingvistik kategoriyalar ham shunchalik individualdir, deb hisoblaydi[24].

Badiiy matn o'zining ifoda shakli va mazmuni bilan boshqa matnlardan keskin farqlanadi. Bu farq badiiy matnning lingvoestetik hamda lingvopoetik vazifalarida ko'zga tashlanadi. Tilshunoslikda tilning estetik funksiyasini o'rganuvchi lingvopoetika[25] yo'nalishi allaqachon shakllanib ulgurgan bo'lsa, badiiy matn tadqiqi bilan bog'liq muallifning dictum va modusidan iborat estetik qarashlarini o'rganuvchi lingvoestetika sohasi endigina shakllanmoqda. O'zbek tilshunosligida matn mazmunining yuqori sathi atroflicha va batafsil o'rganilgan bo'lib, u o'zbek tilining mazmuniy sintaksisi, til estetikasi va lingvopoetika[26] masalalariga oid ishlarda ma'lum ma'noda o'z ifodasini topgan. Biroq tilning implikativ tarkibi bilan bog'liq lingvoestetik hodisalar matn semantik strukturasining quyi mazmuniy sathi muammolari sifatida tadqiq etilmagan. Badiiy matnning lingvoestetik xususiyatlari muallifning individual uslubiga aloqador hodisalar sifatida to'liq va mukammal o'rganilmagan bo'lib, bu sohaga oid dastlabki tadqiqotlar yuzaga kelmoqda[27].

Olamning real hamda badiiy manzarasini ifodalashga xizmat qiluvchi lisoniy belgilar sistemasi ham atash, ham badiiy-estetik funksiya bajarishi bilan xarakterlanadi. Muayyan xalqqa mansub bo'lgan ijodkorlar esa jamoa ongidagi tilni boyitishga, uni yangi ifoda vositalari bilan to'ldirishga xizmat qiladilar.

---

[23] Должикова С.Н. Маркеры эстетической функции языка в дискурсе маркетинга // www.gramota.net/materials/2/2011/3/13.html (murojaat sanasi 12.08.2023).

[24] Bu haqida qarang: Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 3.

[25] Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1992; Нурмонов А. Тилшуносликнинг адабиёт билан муносабати // Танланган асарлар. III жилдлик. III жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б.163; Маҳмудов Н. Ойбек шеъриятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 6. – Б.48-51. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – № 4. – Б.34-36. Шайхзода сўзининг лингвопоэтикасига чизгилар // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2009. – Б.12-17; Якуббекова М.М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2009; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Тошхўжаева Ш.Ғ. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2017; Анданиязова Д.Р. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс.. – Тошкент, 2017; Қурбонова М.О. Мустақиллик даври достонлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2019.

[26] Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992; Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981; Мамажонов А., Ҳайдаров Д. Мақолларда яширинган маънолар. // ФДУ хабарлар. – Фарғона, 2001 (Илова тўплам) – Б. 173-175; Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2006.

[27] Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: Филол. фан. док. (DSc) … дисс. автореф. – Фарғона, 2021.

Ijodkor badiiy tafakkuri faoliyati natijasida qayta ishlangan va yangidan paydo bo'lgan lisoniy sistema va uning elementlari o'zining lingvoestetik, lingvopoetik funksiyalari bilan xalqning ma'naviy-madaniy mulkiga aylanib boradi.

Birinchi bobning **"Matn va badiiylik kategoriyalari"** deb nomlangan ikkinchi faslida har qanday matnga xos universal kategoriyalar bilan birga, muayyan uslubga xos bo'lgan paradigmalar haqida fikr yuritiladi. Badiiy matn barcha matnlar uchun xos bo'lgan universal kategoriyalardan tashqari, badiiylik kategoriyasiga ham ega bo'ladi. Bu kategoriyasiz badiiy matn to'g'risida gapirish mumkin emas. Badiiy matn mazmuniy strukturasining murakkabligi ushbu kategoriyaga bog'liqdir.

Ma'lumki, asar mazmunini g'oya va fikrlar shakllantiradi. Biroq mazmunni shakllantirishga xizmat qiladigan ayrim fikrlar lisoniy vositalar tarkibiga sig'may qolishi mumkin. Bunday vaqtlarda fikr bilan so'z o'rtasida "jang" boradi. Ijodkor g'oya va fikrlarni qog'ozga tushirar ekan, ifoda shaklini tanlaydi, so'zni tanlash esa uslubni belgilaydi. Bu haqda shunday yoziladi: "...havoriy Pavelning maktublari ham o'z uslubiga ko'ra juda zo'r ilhom bilan yozilgan. Ularda yunon adabiy an'analari dadil ravishda buzilgan. Ularda fikrning, har qanday qilib bo'lsa-da, aytilmasa bo'lmaydigan, hatto grammatik qonun-qoidalarning buzilishi evaziga bo'lsa-da, muqarrar tarzda aytilishi zarur bo'lgan so'z bilan ayovsiz va shiddatli kurashi aks etgan: fikr ifodalanishi kerak, lekin so'z fikrga bo'ysunishni istamaydi" [28]. Har qanday shoir yoki yozuvchi borliqning badiiy yoki poetik tasvirida o'ziga xos individual uslubni tanlaydi. Ijodkorning uslubi tafakkurdagi fikrning badiiy-estetik yoki poetik ifodasida ko'zga tashlanadi. Poetik ifoda lisoniy belgilar assotsiatsiyasi bilan bog'lanadi. Tabiiy tildan foydalanish evaziga assotsiatsiyalanadigan belgilar sistemasi **"birlamchi modellashgan sistema"** deb yuritiladi. Birlamchi modellashgan sistemada assotsiatsiya uchun badiiylikka asoslangan belgi va bo'yoqlar mavjud bo'lmaydi. Ularda olam elementlari nominativ va referent xususiyatga ega bo'ladi. Birlamchi modellashgan sistemaga mansub bo'lgan nominativ birliklarning ijodkor tomonidan qo'llanishi natijasida obrazli konnotatsiyalanish jarayoni badiiy uslubga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarni namoyon etadi. Badiiy tilga asoslangan bunday belgilar sistemasi **"ikkilamchi modellashgan sistema"** [29] sifatida e'tirof etiladi. Kontekstual nominativ birliklar poetik misralarda shoir idrokiga asoslangan tilning tasviriy vositalari yordamida shakllanadi. Ular obrazli ifoda shakli sifatida nasrda intonatsiyaga asoslangan ritm va nazmda misralar estetik ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, *O'smadin qoshlar qaro, qo'llar xinodin lola rang Durraning og'ushida peshonaning ahvoli tang...* (Furqat)

Bunday kontekstual nominatsiya ijodkorning mahorati tufayli paydo bo'ladi. Bular **ternar[30]* modellashgan sistema**, deb atalsa, to'g'riroq bo'ladi. A.Qodiriy, A.Qahhor, S.Ahmad kabi qator adiblar intellektual salohiyati, adabiy va badiiy

---

[28] Парандовский Я. Сўз кимёси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – Б. 12.

[29] Тураева З.Я. Лингвистика текста. – М.: Просвещение, 1986. – С. 82.

[30] * "Ternar modellashgan sistema" termini Praga tilshunoslik maktabi vakillari hamda A.Nurmonov, A.Abduazizovning bir a'zoli, ikki a'zoli (binar), uch a'zoli (ternar) zidlanishlar haqidagi nazariyalariga asosan belgilandi.

kompetensiyasi yuqori bo'lgan, ijodiy faoliyatida prustona uslubga ega bo'lgan mohir so'z ustalaridir.

Bobning **"Lingvistik va adabiy kompetensiyalar paradigmasi"** deb nomlangan uchinchi faslida lisoniy va adabiy kompetensiyalarga oid fikrlar bayon qilinadi. "Adabiy kompetensiya" atamasi tilshunoslikda "lisoniy kompetensiya", rus tilida "языковое чутьё"[31] termini bilan yuritiladi. Bu termin o'zbek tiliga "tilni (til xususiyatlarini) tushunish, sezish[32], nozik tarzda ilg'ash" ma'nosida tarjima qilinadi. Badiiy matn muallifi tomonidan mohirlik bilan qo'llangan har bir so'z va lisoniy ifoda vositasi orqali ishora qilingan ma'no, fikr va mazmunni ilg'ashga nisbatan "adabiy va lisoniy kompetensiya" terminlari qo'llaniladi. A.A.Potebnya o'zining fikr va til haqidagi qarashlarini N.Xomskiyning generativ grammatika mohiyati hisoblangan "lisoniy kompetensiya" nazariyasi bilan asoslaydi. U "...til sohiblarining lisoniy vositalardan foydalanish va ularga egalik qilish bilan bog'liq holatini "lisoniy kompetensiya"[33] deb izohlaydi. Masalan, A.G'ulom "...qozoqlar, qirg'izlarda va yana boshqa bir turkiy tillarda "sinchi" va "shinchi" degan so'z bor. Bu so'z o'zbek tilida ham bor, faqat o'zbeklarda u "chinchi" deb yuritiladi. "Chinchi" "chin" so'zidan olingan bo'lib, "haqiqatchi", "haqiqatparvar" degan ma'noni bildiradi. ...qirg'izlar tanqidchini "sinchi" deb atar ekanlar, uni adabiyot haqidagi haqiqatni yuzaga chiqaruvchi odam deb hisoblashlarini"[34] ta'kidlaydi. O.Sharafiddinov tili bilan aytganda, "...kukuruznik" deb nomlangan samolyotni "bodroqchi", odamga nisbatan qo'llanadigan "g'inshimoq"[35] so'zini chivinga nisbatan qo'llash tildagi so'zlarning ma'nosini bilmaslik natijasidir. Fikr aniq va to'g'ri ifodalanishi uchun zaxiradagi lisoniy birliklar va ularning variantlaridan to'g'ri foydalanish, lug'aviy birliklarni funksional uslubning qaysi turiga mansubligini ajrata olish va uni o'sha nutq turiga nisbatan qo'llay olish "lisoniy kompetensiya" tushunchasini anglatadi. Adabiy kompetensiyada ijod bilan bog'liq adabiy jarayon yuz beradi. Voqea tafsilotlari badiiy-estetik qimmat kasb etadi:

– ...*Podshoyi olam, iltimos, meni shu jallod so'ymasin. U ilmsiz, omi. Mahkumni qandoq so'yishni ham bilmaydi. Duch kelgan joyidan – oyog'idanmi, tirsagidanmi so'yaveradi. Jon tomiri qayerdaligini bilmaydi. Iltimosim shuki, meni tajribali, iste'dodli, hunarmand jallod so'ysin.*

– ...*Istagingni bajo keltiraman. Seni tishimning kovagida asrab yurgan, so'ygan odami to'ppa-to'g'ri jannatga tushadigan bir insonparvar, qo'li gul jallodim so'yadi. Ammo-lekin mazza qilasan...* (S.Ahmad)

Ramziy ma'noda ishlatilgan *"jallodlar ham tajribali yoki tajribasiz bo'lishadi"* axboroti ortida muallif boshqa fikrga ishora qiladi: *Agar menga gazeta muharriri "Kitobingga falon adabiyotchi taqriz yozyapti", desa, albatta, ranjiyman.*

---

[31] https://cyberleninka.ru/article/n/sootnoshenie-ponyatiy-chutie-yazyka-chuvstvo-yazyka-yazykovaya-kompetentsiya-yazykovaya-sposobnost/viewer (murojaat sanasi: 17.07.2023).

[32] Русско-узбекский словарь. – М.: Государственное изд-во иностранных и национальных словарей, 1954. – С. 956.

[33] https://cyberleninka.ru/article/n/yazykovaya-kompetentsiya-ot-a-a-potebni-k-n-homskomu/viewer (murojaat sanasi: 17.07.2023).

[34] Bu haqida qarang: Шарафиддинов О. Домлалар. – Тошкент: Маънавият, 2009. – Б. 156.

[35] Шарафиддинов О. Адабиёт тилдан бошланади. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. – Б. 34.

– U adabiyotchi kitobning tomirini topolmaydi, – deyman.

– Bir chekkadan varaqlab, to'g'rimi-noto'g'rimi, deb o'tirmay uraveradi. Kitobni juda qiynavoradi. Durustroq, tajribaliroq, kitobning qon bosimini tez aniqlaydigan, kitobsevar tanqidchi topsanglar, durust bo'lardi... Unga "Ozod yozsin" deb ham ayta olmayman. Aytsam, meni maqtaydigan olimni topinglar, degan ma'no chiqmasin deymanda (S.Ahmad).

S.Ahmad so'zni rivoyat bilan boshlab, bu rivoyat orqali asosiy fikrni durust va nodurust tanqidchilarga qaratadi. Matnda ifodalangan implikativ fikrdan O.Sharafiddinovning "durustroq" tanqidchilar toifasiga mansubligi anglashiladi. Bunday ifoda uslubi, yuqorida alohida ta'kidlaganimizdek, tajribali yozuvchilargagina xos bo'lgan adabiy kompetensiyadir.

Dissertatsiyaning **"Badiiy matn assotsiatsiyasi va semiologik-semantik talqin"** deb nomlangan ikkinchi bobi mazmuni beshta faslda bayon qilingan. Bobning **"Semiotika va lisoniy semiologik paradigma"** deb nomlangan birinchi faslidan belgilar nazariyasiga asoslangan semiologik konsepsiyaning lisoniy faoliyat, til va nutq hamda lisoniy belgining ifoda va mazmun tamoyillariga doir tafsilotlar o'rin olgan. Semiotika haqidagi dastlabki tushuncha, qarash hamda nazariyalardan kelib chiqib, uni uchta yo'nalishda o'rganish mumkin. Belgilar nazariyasiga asoslangan semiologik konsepsiya dastlab lisoniy faoliyatga nisbatan belgilanadi. Bu til va tafakkur modeli bilan namoyon bo'ladi. Belgilar nazariyasiga asoslangan semiologik konsepsiya keyingi bosqichda til va nutq modeli bilan belgilanadi. Bu semiologik modellarga binoan borliq elementlari haqidagi tasavvur va fikrlar konseptual struktura bilan differensiatsiyalanadi. Belgilar nazariyasiga asoslangan uchinchi bosqichda lisoniy belgi ifoda va mazmun tamoyillariga nisbatan belgilanadi. Lisoniy belgi assotsiatsiyasiga nisbatlangan bunday konsepsiya gap, matn va nutqda shakl va mazmun uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi. Semiologik sistemaga asoslangan uch bosqichli bu nazariyalar semantika, sintaktika va pragmatika kabi yo'nalishlarga oid tadqiqotlar uchun konseptual asos bo'lib xizmat qiladi. Tilshunoslikda pragmalingvistik paradigma ana shunday semiologik sistemaga asoslangan lingvosemiotika konsepsiyasi negizida shakllandi.

Bobning ikkinchi fasli **"Badiiy matn: assotsiatsiya va interpretatsiya"** deb nomlangan. Germenevtika haqidagi dastlabki tushunchalar inson tafakkurida yuz beradigan fikrlash jarayonidan boshlanadi. Sezgi a'zolari tomonidan jamlangan ma'lumotlar asosida fikrlar shakllana boshlaydi. Germenevtik nazariyaga asosan inson tasavvuri olamda yuz berayotgan voqealarni idrok qilish hamda ularga xos bo'lgan xususiyatlarni ko'rish orqali amalga oshiriladi. Inson o'z tasavvuri orqali borliqdagi narsa, hodisa yoki voqeani anglay boshlaydi. So'zlashuvchilar uchun notanish bo'lgan buyum yoki hodisalar haqida so'z borganda fikrlash jarayoni bilan bog'liq tasavvur bosqichi ishga tushadi. Biror yangi narsa haqidagi ma'lumotni yig'ish, unga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlash hamda o'sha narsa haqidagi umumiy tushunchani shakllantirish tasavvur bosqichi orqali yuz beradi. Shu asosda kommunikantlar tafakkurida fikrlash jarayoni sodir bo'lib, narsa haqidagi umumiy tushunchalar paydo bo'la boshlaydi. Aytilayotgan har qanday fikrni anglash, ularni tizimlashtirish, so'zlovchining kommunikativ maqsadini

ochib berishga xizmat qiluvchi fikrlarni mantiq asosida bayon qilish kognitiv faoliyatning germenevtik asosi sanaladi.

"Assotsiatsiya" termini D.Lutfullayeva qarashlarida o'z ifodasini topgan: "...assotsiativ lug'atlar muayyan tildagi assotsiativ munosabatli leksik birliklar, ularning inson xotirasida shakllangan uyalari, assotsiativ birliklarning leksik-semantik, lingvomadaniy, sotsiolingvistik, genderologik, pragmalingvistik xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi lug'at turi hisoblanadi"[36].

Darchadan kirgan shamol osma chiroqni lipillatdi, tebratdi. Dodxo pastga qaradi va suyunib ketganday:

– Bo'yra, bo'yra ekan! – dedi va darchani yana zich yopib joyiga o'tirdi.

Bo'yra *odatda tobutga solinadigan bo'lganidan, dodxoning ko'z oldiga odamlarning elkasida lapanglab ketayotgan tobutni keltirdi.* **Tobut** *esa yana go'ristonni eslatdi, go'riston haqida bolaligidan qulog'ida qolib kelgan vahimali gaplarni, hodisalarni jonlantirib yubordi* (A.Qahhor).

Bu matnda qo'llangan *"bo'yra"* tobutga va *"tobut"* go'riston so'ziga stimul funksiyasini bajaradi. Muallif mazkur stimul so'zlar orqali Dodxo tafakkuridagi assotsiatsiyani ***"Bo'yra** odatda tobutga solinadigan bo'lganidan, dodxoning ko'z oldiga odamlarning yelkasida lapanglab ketayotgan tobutni keltirdi. **Tobut** esa **yana go'ristonni eslatdi"** kabi verbal vositalar bilan tasvirlaydi.

"*Interpretatsiya* lotincha *"interpretation"* so'zidan olingan bo'lib, u ma'no va fikrni tushuntirish, izohlash, sharhlash hamda ...musiqachilik, aktyorlik, rejissyorlik kabi san'atlarda ijodiy faoliyatga daxldor termin sifatida badiiy asardagi g'oyaviy-badiiy fikrlarni izohlash"[37] ma'nosida qo'llanadi. Interpretatsiya matn mazmuniga asoslangan fikrlarni idrok qilishda muhim o'rin tutadi. Idrok, idrok qilish yoki idroklanish jarayonini *fahmlamoq* so'zi ifodalagan lug'aviy ma'no bilan tushuntirish mumkin. Badiiy matn muallifi obrazlarga xos idrok jarayonini turlicha variantlarga asoslangan fikrlar assotsiatsiyasi sifatida tasvirlaydi:

– Javob bersangiz... Ganjiravonga ketsam... Bitta go'rga bitta pichoq emas, o'nta go'rga o'nta pichoq sanchib kelaman... – dedi.

Uning maqsadini kundoshlar darrov **fahmlashdi***. Lekin dodxo bunday gapni sira kutmagani uchun yanglish tushundi.*

*– **Tag'in nima qilasan Ganjiravonda, borib kelganingga ikki oy ham bo'lgani yo'q-ku!** (A.Qahhor).*

Mazkur matnda ifodalangan *– Javob bersangiz... Ganjiravonga ketsam... Bitta go'rga bitta pichoq emas, o'nta go'rga o'nta pichoq sanchib kelaman... –* gapi orqali ifodalangan xabar dodxo uchun uyga borib-kelish mazmuni bilan tushunilsa, Unsin tomonidan aytilgan fikrning mohiyati nikohni buzish istagi bilan belgilanadi.

---

[36] Lutfullayeva D., Davlatova R., Tojiboyev B. O'zbek tili assotsiativ lug'ati. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2019. – Б. 6.

[37] Словарь иностранных слов. – М.: Рус. яз., 1988. – С. 203.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli **"Semiologik semantika va eksplitsitlik kategoriyasi"** deb nomlangan. Semantika faqat til nazariyasi nuqtayi nazaridan tilning leksik sistemasi uchungina xos bo'lmay, balki nutq nazariyasi paradigmasiga binoan barcha til sathi birliklarining nofaol qatlamdan real va faol qatlamga o'tishi hamda denotativ ma'nodan konnotatsiya tomon yo'nalishi, uzual ma'nodan okkazional ma'noga siljishi gap va undan yirik bo'lgan kontekstlar mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Semantika sistemasiga mansub barcha terminologik birliklar nafaqat ma'no, balki tushuncha, fikr, konsept va mazmun bilan bog'liq belgilarning kommunikantlar tomonidan to'g'ri anglanishiga yordam beradi. Eksplitsitlik va implitsitlik kategoriyasi o'z tarkibiga lisoniy va nolisoniy ifoda vositalari bilan reallashadigan ma'no va mazmuniy strukturalarni qamrab oladi. Bunday mazmuniy strukturalar mantiqiy semantika bilan bog'lanadi. Sh.Safarov bu haqda quyidagicha fikr bildiradi: "...nemis matematigi va mantiqshunosi G.Frege hamda amerikalik faylasuf – semiotika fanining asoschisi Ch.Pirslarning nazariy g'oyalari mantiqiy semantika sohasining shakllanishi va rivojiga turtki berdi.

Hozirgi paytda semasiologlar qo'llab turgan "denotat", "signifikat", "intensional", "ekstensional", "implikatsional" [38] kabi terminlar semiotika va mantiqshunoslikdan o'zlashtirilgan meros"dir. "Eksplitsit" va "implitsit" kabi terminlar ham tilshunoslikka pragmalingvistikaga oid tadqiqotlar orqali kirib keldi. "Eksplitsitlik inglizcha "explicit" so'zidan olingan bo'lib, u "belgida fikrni oshkora berish" ma'nosini anglatadi" [39]. Lisoniy belgilar yig'indisi yordamida bevosita ifodalangan xabar ifodaning eksplitsit mazmuni, deb yuritiladi [40]. Eksplikatsiya termini eksplitsitlik terminidan farqlanib, u kommunikantlar tafakkurida hosil bo'lgan va aynan matnda yashirilishi kerak bo'lgan fikrning verbal maqomga ega bo'lishidir. Fikrlarning lisoniy vositalar bilan eksplikatsiyalanishi "...noaniqlikdan aniqlik sari yurish – gnoseologik faoliyat maqsadidir. O'z paytida J.Munen tilshunoslikda mantiqiy tajriba asosida yuzaga keladigan nolisoniy semantika (moddiylashmagan fikr – M.G.)ning lisoniy semantikada qanday aks etishini qayd etgan edi... Tilshunoslik obyektini semantikaning faqat kichik bir qismi lisoniy belgilar vositasida ifodalanadigan ma'no yoki turli sathlarga oid til birliklarining ma'nosi tashkil qiladi, tub lisoniy semantikani til birliklari ma'nosi doirasidan tashqari turadigan nolisoniy semantika" [41] dan, ya'ni tafakkurdagi fikrlar semantikasidan farqlash kerak. Tafakkurdagi fikrlarning lisoniy vositalar bilan moddiylashishi nolisoniy semantikaning lisoniy semantikaga aylanishidir. Masalan,
    *– Guvohlaringiz bormi? – deb so'radi. – Guvohmi? – deb so'radi Asadbek, so'ng telefonni ko'rsatdi: – Ana, guvoh. Aeroportga telefon qil. – Meni sensiramang, – deb yana tanbeh berdi tergovchi. **"Sendaqalarning jonini Kesakpolvon kirg'izib qo'yar edi. Baxtingga u o'lib ketdi", deb o'yladi Asadbek**, unga g'azab bilan tikilib. Alhol tergovchi yana biron nima deb tanbeh bersa, Asadbekdan shirin gap eshitmasligi aniq edi* (T. Malik).

---

[38] Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013 – Б.16.
[39] Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов.энциклопедия, 1969. – С. 523.
[40] Долинин К. А. Имплицитное содержание высказывания // Вопросы языкознания. – 1983. – № 6. – С. 37.
[41] Safarov Sh. O'sha asar. – B. 15-16.

Badiiy kontekst mazmuniga ko'ra qahramonlarning o'zaro muloqoti tufayli ularning tafakkurida implitsit fikrlar paydo bo'ladi. Bunday fikrlar nolisoniy semantika doirasida o'rganiladi. Tafakkurga xos kontekstual fikrlar muallif tomonidan lisoniy vositalar yordamida ochiladi va ular matnda propozitiv strukturaga aylanadi. Aynan mana shunday jarayon *fikrlar eksplikatsiyalanishi* hisoblanadi.

Ikkinchi bobning **"Badiiy matn: yuqori va quyi mazmuniy sath"** deb nomlangan to'rtinchi faslida matnning eksplitsit va implitsit mazmuniy qismlari to'g'risida so'z boradi. Tilshunoslikda semantik sintaksis, sintaktik semantika, mazmuniy sintaksis, poetik sintaksis kabi terminlar va ularning izohi bilan bog'liq tushuncha hamda qarashlarning paydo bo'lishi o'tgan asrning 80-yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda yaratilgan ilmiy adabiyotlarda "yuqori va tub struktura[42]", "so'zma-so'z, aniq, nazarda tutilgan, o'ylangan[43]", "eksplitsit va implitsit[44]", "lisoniy vositalar orqali ifodalangan yashirin fikrlar, lisoniy vositalar ortidagi fikrlar[45]", "intensional, nointensional va konvensional fikr[46]" kabi sharhlar mavjud.

Dunyo tilshunosligida gap yoki matn mazmuniy sathining ikki guruhga ajratilishiga oid terminologik birliklar qo'llansa, o'zbek tilshunosligida esa mazmuniy sathning faqat implikativ qismiga tegishli bo'lgan ayrim hodisalar nomi bilan ifodalangan termin yoki terminlar birikmasining qo'llanilishini ko'rish mumkin. "Gap yoki matn tarkibidagi mantiqqa tegishli bo'lgan fikrlarning lisoniy vositalar bilan ifodalanishida mantiqqa asoslangan presuppozitsiya, tagbilim[47]ga oid fikrlar, mazmunning "tagma'no[48]" ko'rinishi, "tilning modus sistemasi[49]" kabi terminlar qo'llanadi. Mazkur terminlarning mavjudligi matn mazmuniy sathi tasnifiga ehtiyoj borligidan dalolat beradi. "...har qanday gapning (yoki tekstning) tuzilishi murakkab, ko'p planli (sintaktik tuzilishi, semantik tuzilishi va boshqalar) bo'lgani kabi, uning semantik tuzilishining o'zi ham bir necha komponentlardan – propozitiv, modal, kommunikativ tuzilishlardan tashkil topadi"[50].

Sh.Safarov va qator pragmalingvist olimlarning ta'kidlashicha, matn mazmunining denotativ va signifikativ xususiyatlari qatoriga propozitsiya, referensiya, eksplikatura, inferensiya, implikatura, relevantlik, presuppozitsiya

[42] Купина Н.А. Смысл художественного текста и аспекты лингвистического анализа. – Красноярск: Изд-во Красноярского ун-та, 1983.

[43] Овсянникова Е.В. Основные функии имплицитных смыслов в высказываниях и текстах: на материале англоязычной прозы: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1993.

[44] Бакланова Е.А. Слово и имплицитный смысл в ранних рассказах В.В.Набокова: на материале сборника "Возвращение Чорба": Дисс. … канд. филол. наук. – Томск, 2006.

[45] Исаева Л.А. Виды скрытых смыслов и способы их представления в художественном тексте: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Краснодар, 1996.

[46] Масленникова А.А. Лингвистическая интерпретация скрытых смыслов. – Санкт- Петербург: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 1999.

[47] Махмудов Н. Пресуппозиция и гап. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986, № 6. – Б. 28-32.; Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986, № 6. – Б. 42-45.; Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992; Xudoyberganova D. Antropotsentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Tubo nashr, 2022.

[48] Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик тадқиқи: Филол. фан. док. … дисс. – Тошкент, 2001.

[49] Йигиталиева З. Тилнинг модус системаси. – Фарғона: Classic, 2021. – 140 б.

[50] Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986, № 6. – Б. 42.

kabilar[51] kiritiladi. Bu oʻrinda faqat matnning har ikki mazmuniy sathiga oid propozitiv strukturasi, nominatsiya nazariyasi bilan aloqador referensiya, yuqori mazmuniy sathga oid eksplikatura kabi hodisalar differensiatsiyalanmagan holda koʻrsatiladi. Aslida yuqoridagi olimlar umumiy tarzda matnning mazmuniy sathiga oid birliklar tarkibini toʻgʻri tasnif qilganlar.

Bizga ma'lumki, yuqori va quyi mazmuniy sathga oid fikrlar matnning umumiy mazmunini tashkil qiladi. Ular faqat bitta mezon asosida guruhlarga ajratiladi. Bularning birinchisi fikrning oshkora ifodalanishi boʻlib, u eksplitsit fikr termini bilan yuritiladi. Ikkinchisi esa fikrning yashirin ifodasi boʻlib, u tilshunoslikda implikativ struktura*[52] deb nomlanadi. Matnning quyi mazmuniy sathiga oid fikrlarning implikativ ifodalanishi *presuppozitsiya, tagma'no, inferensiya, allyuziya* kabi hodisalarda koʻzga tashlanadi. Quyi mazmuniy sath tizimiga oid boʻlgan hodisalar asosida yuzaga chiqadigan fikrning yashirin ifodasi implitsitlashgan fikr deb nomlanadi.

Ikkinchi bobning beshinchi fasli **"Semiologik semantika va implitsitlik kategoriyasi"** deb nomlangan. Lisoniy birliklarning yashirin ma'nosiga oid qarashlar tilshunoslikda yangi yoʻnalish deb e'tirof etilsa-da, aslida tilning implitsit strukturasiga taalluqli gʻoyalar yirik tilshunos olimlar tomonidan ancha ilgari aytilgan. "B.L.Uorf 1936-yilda "kriptotip", 1938-yilda "yashirin kategoriya" kabi terminlarni taklif qiladi. I.A.Boduen de Kurtene esa "yashirin lisoniy tasavvurlar"ning katta guruhlari haqida gapiradi"[53]. Bunday gʻoya va qarashlar mentalingvistika tizimidagi til va tafakkurning oʻzaro munosabatidan iborat boʻlib, u Vilgelm fon Gumboldtning antinomiyalariga bogʻlanadi. Antinomiya nazariyasiga koʻra, "...tilsiz tafakkurning boʻlishi mumkin emas. Til, oʻz navbatida, tafakkurni taqozo etadi. Har ikkisi bir-birining taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Inson faoliyatida til va tafakkur bir-biridan ajralgan holda yashamaydi. Bu esa ularning ajralmas bir butunligi va ichki ziddiyatini, katta butunlikning ziddiyatli ikki tomonini koʻrsatadi"[54]. Til va tafakkurning bogʻliqligi fikrning lisoniy moddiylashuvi orqali, lisoniy ifodaning asosi esa tafakkurdagi gʻoya va fikrlarning mazmuni orqali yuzaga chiqadi. "Tilning tafakkur faoliyatidagi rolini bilish uchun ong va tilning munosabatiga oddiy bir hol (hodisa) sifatida qaramaslik lozim. Bu munosabat ikki mustaqil hodisaning oʻzaro "muloqoti"dir. Xuddi shu "muloqot" mental faoliyatning lisoniylashuviga olib keladi, zero, lisoniy va mantiqiy faoliyat bir-biriga hamroh boʻlib, ular yagona nutqiy tafakkur jarayonini tashkil etadi. Demak, til ongni harakatlantiruvchi vositalardan biridir, u ongda eng oddiy birlamchi (elementar) tafakkur kategoriyalari paydo boʻlishini ta'minlaydi. Ushbu kategoriyalarsiz "...alohida nutqiy tuzilmalar – gaplarni tushunish va fikr (gʻoya)ning hamda shu yoʻsinda bilimning faollashuvini ham tasavvur qilib boʻlmaydi"[55]. Tafakkurdagi fikr va gʻoyalar implitsitlashgan kategoriya sifatida muntazam ravishda mavjud boʻladi. Bunday kategoriyalarning asosi va mohiyati

[51] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 118.
*[52] 1-jadval ilovada beriladi.
[53] Қаранг: Матвеева Г.Г. Основы прагмалингвистики. – М.: Инфра-М, 2022. – С. 47.
[54] Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. II жилд. – Тошкент: Academnashr, 2012. – Б. 31.
[55] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 14.

olamni bilish va anglash jarayonining mahsulidir. "Inson sezgi organlari orqali obyektiv olam elementlari belgilarini umumlashtirgan holda aks ettiradi va ongda aks ettirilgan bu obyektiv olamning umumlashgan obrazi til kodlari orqali tinglovchiga uzatiladi. Tinglovchi akustik signal orqali obyektiv reallik haqida ma'lumotga ega bo'ladi"[56]. Akustik signallar orqali qabul qilingan tushuncha va ma'lumotlar lisoniy vositalar yordamida oshkora ifoda shakliga ega bo'lsa-da, ularning bir qismi mantiqiy kategoriyalarga oid bo'lib, verbal vositalarning kognitiv modellari bilan kodlanadi. Mantiqiy kategoriyalarga oid semantik tushuncha va birliklar inson tafakkurida muntazam ravishda saqlanadi. Kommunikantlar ana shu zaxiradagi muayyan bilimlar asosida yashirin axborotlarni anglab oladilar. Demak, fikrning oshkora va yashirin ifodalanishi ham grammatik kategoriyalar, ham mantiqiy kategoriyalar yordamida yuz beradi. Implitsitlik lingvokognitiv fenomendir. U til, nutq va matnda bilimlarning maxsus shakli sifatida mavjuddir. Implitsitlik kategoriyasi bo'yicha dastlabki tadqiqotlar O.Dyukro, S.Todorova kabi olimlarga tegishli bo'lib, ular bu masalaga o'z munosabatlarini bildirganlar. Shu sohadagi tadqiqotlarni V.A.Zveginsev, K.A.Dolinin, E.V.Yermakova[57] kabi olimlar davom ettirganlar. "Lingvokognitiv modellarga muvofiq tarzda implitsitlik hodisasini quyidagi kognitiv shakllarga ajratish mumkin: 1) implitsit bilim; 2) implitsit ma'no; 3) implitsit fikrlar. Implitsit bilim latent (yashirin) omillar sifatida lisoniy ma'noga qo'shiladi, kontekstual vaziyatlar bilan bog'liq holatlarda ayrim lisoniy shakllar orqali namoyon bo'ladi. "Implitsit ma'no" tushunchasi fanga L.V.Bondarko tomonidan kiritilgan bo'lib, u interpretatsion fikr komponenti hisoblanadi. U grammatik kategoriyalarning semantik markerlanmagan qismi sanaladi. Nutqdagi implitsit bilim lingvistik kuzatuvlar orqali kontekstga avtomatik ravishda qo'shilib implitsit fikrlarni hosil qiladi. Nutqiy implitsit fikr bilan lisoniy implitsit ma'no o'zaro farqlanadi"[58]. Muayyan til egalari va shu jamoa vakillari xotirasida o'sha tilning lug'aviy zaxirasi hamda grammatik qoidalari saqlanadi. Tafakkurdagi ana shu lisoniy birliklar g'oya va fikrlar ifodasi uchun xizmat qiladi hamda kommunikantlarning o'zaro muloqotini ta'minlovchi zaxira funksiyasini bajaradi. Shu ma'noda badiiy matn muallifi ham o'z asarlari mazmunini ana shu zaxiradagi lug'aviy birliklarga asoslangan fikrlari bilan shakllantiradi.

Implitsit bilim kontekstual hodisa sifatida tafakkurdagi bilimlarning badiiy matndagi stimul birlik ta'sirida jamlanishi natijasida yuzaga keladi. Implitsit fikr ham badiiy matnda muallif tomonidan qo'llanadi. Muallif implitsit fikrlarga ma'lum kontekstlar orqali ishora qiladi. Masalan:

---

[56] Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 324.

[57] Ducrot O. Pressuposes et sous-entendust // Epistemologie. Langue. – 1998. P. 107-126; Тодоров Ц. Грамматика повествовательного текста // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. – С. 450-463; Звегинцев В.А. Предложение и его отношение к языку и речи. – М.: Изд-во Московского ун-та, 1976; Долинин К.А. Имплицитное содержание высказывания // Вопросы языкознание. – 1983. – № 6. – С. 37-47; Ермакова Е.В. Имплицитность в художественном тексте (на материале русскоязычной и англоязычной прозы психологического и фантастического реализма): Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Саратов, 2010.

[58] Ермакова Е.В. Имплицитность в художественном тексте (на материале русскоязычной и англоязычной прозы психологического и фантастического реализма): Автореф. дисс. ... док. филол.наук. – Саратов, 2010. – С. 10.

O'rdaliqqa gap uqdirish qiyomatdan keyin, taqsir. Lekin bu yigitda **gavrlik** *siyohi yo'q. Shukur so'fi. Gapka qonib olib, quloq qoqmay "xo'b". Arzaning bir yeriga zakotchining oti tushar ekan, necha qayta so'rasa ham bilmadim, undan keyin afti basharasini uqdirib edim, tusmollab bittasini otini yozdi, chog'i. "endi keta bering, arzani o'zim topshiraman", – deydi. Javobini ham ikki kundan keyin o'zidan olar emishman...* (A.Qodiriy).

Yuqoridagi matnda *gavrlik* so'zi muallif tomonidan implitsit bilim bilan izohlanadi. A.Qodiriy *gavr (gabr) so'zining "otashparast, islomni tanimaslik"* ma'nosida qo'llanishini ta'kidlaydi, kontekstda esa **gavrlik siyohi yo'q** ifodasini *otashparast emas* yoki *islomni taniydigan* ma'nosida ishlatadi. Implitsit ma'no ham kontekstda lisoniy maqom bilan ko'zga tashlanmaydigan, biroq matnni o'qish jarayonida o'sha so'z va uning lug'aviy ma'nosini his qilish bilan bog'liq kontekstual hodisadir. Masalan:

— *Xo'p, lafzimdan qaytmayman, mana xotirjam bo'la qol: men hozir seni bir taloq qo'ydim, qaytib kelganingdan keyin uch taloqsan! Bor, qumg'onni ko'tar!..* **Unsin dodxodan darrov yuzini berkitganicha** *chiqib ketdi* (A.Qahhor).

Mazkur kontekstda "**Unsin dodxodan darrov yuzini berkitganicha** *chiqib ketdi*" noverbal ifodasi orqali *"nomahram"* ma'nosiga asoslangan implitsit ma'no anglanadi. Bu implitsit ma'no esa implitsit fikrga ishora qiladi. Implitsit fikr esa diniy tushunchalar mohiyati bilan bog'liq implitsit bilimlarni talab qiladi.

Implitsit kategoriyaga oid kripto termini lug'atda quyidagicha izohlanadi: "kripto..." grekcha *kryptos* so'zidan olingan bo'lib, *"sir, hali ma'lum bo'lmagan, yashirin"*[59] kabi ma'nolarni anglatadi. Boshqa lug'atlarda esa *kriptogramma* – "*maxfiy belgi yoki ishoralar bilan yozilgan xat yoki yozuv*", degan ma'noda ishlatilishi ko'rsatiladi. Demak, B.L.Uorfning yashirin grammatika konsepsiyasiga taalluqli bo'lgan *"kriptotip"* atamasini yuqoridagi etimologik tahlillarga asoslangan holda quyidagicha izohlash mumkin. *"Kriptotip"* terminining birinchi qismi grekcha *"kryptos"* so'zidan olingan bo'lib, "maxfiy" degan ma'noni anglatadi, mazkur terminning ikkinchi qismi hisoblangan *"tip"* atamasi esa fikrlarning yashirin tipi yoki inson tafakkuriga xos asosiy g'oya mohiyatini beruvchi fikr tushunchasini ifodalashga xizmat qiladi.

I.A.Boduen de Kurtenening implitsit kategoriyalar haqidagi qarashlari "yashirin lisoniy tasavvurlar"ning katta guruhi deb nomlangan bo'lsa-da, G.G.Matveyevaning ta'kidlashicha, "...aslida so'z tashqi formal belgilar haqida boradi. Masalan, nemis tilida grammatik jins kategoriyasi artikllar, zamon kategoriyasi esa ish-harakatning bajarilishiga nisbatan, tuslanish va turlanish paradigmalari tashqi formal ko'rsatkichlarga nisbatan belgilanadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, ularda yashirin ma'no belgilari ko'rinmaydi. Umumiy grammatik kategoriyalar doim ham bu belgilarni ifodalashga xizmat qilmaydi"[60]. Xitoy tilida grammatik kategoriyalar funksiyasi to'rt tonga asoslangan intonatsiya orqali amalga oshiriladi[61]. Shuning uchun ham matn mazmuni bilan bog'liq

---

[59] Словарь иностранных слов. – М.: Рус. яз., 1988. – С. 268.
[60] Матвеева Г.Г. Основы прагмалингвистики. – М.: Инфра-М, 2022. – С. 47.
[61] Ҳидоятова Ш., Каримов А., Аминов Э. Хитой тили грамматикаси (Фонетик ва иероглифик ёзув). – Тошкент: Фан ва технология, 2004. – Б. 14.

oshkora va yashirin mazmuniy strukturalarning shakllanishi ohangga nisbatan belgilanadi. Yashirin lisoniy tasavvurlar esa nutq yoki matn mazmuni bilan namoyon bo'luvchi implikativ fikrlar bo'lib, ularni Boduen de Kurtene tili bilan "yashirin lisoniy tasavvurlar"ga asoslangan implitsit fikrlar deyish mumkin. Matn mazmunining bir qismi bo'lgan bunday implitsit fikrlar nutqiy muloqot jarayonining mahsuli sifatida idrok qilinadi. Idrok qilingan fikrlarning aksariyati kommunikatsiya ishtirokchilarining umumiy bilim fondi tarkibida joylashadi. Shuning uchun ham implitsitlashayotgan fikrlarning mohiyati kognitiv mexanizmlar negizida umumiy bilim fondiga nisbatan belgilanadi. Bunday fikrlarning o'zaro farqlanishi kontekstual struktura, nutq vaziyati hamda boshqa tashqi omillar hisobiga yuz beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Badiiy matn va tagma'no nazariyasi"** deb nomlangan. Mazkur bobning birinchi faslida tagma'no mohiyatiga oid tadqiqotlar haqida fikr yuritilgan. Tilda har bir unsurning o'z vazifasi, ma'no doirasi va boshqa unsurlar bilan bog'lanish qonuniyatlari mavjud. Bu qonuniyatlar matnda muallifning ma'lum bir maqsadi asosida leksik vositalar, sintaktik-stilistik butunliklar orqali namoyon bo'ladi. Badiiy matnda borliqdagi voqea-hodisalarga bo'lgan muallifning xususiy munosabati ba'zan ochiq aytilmay, yashirin tarzda, ya'ni tagma'no ko'rinishida ifoda etiladi. O'zbek tilshunosligida "tagma'no" termini M.Hakimov fikriga ko'ra, "nutq ishtirokchilari tomonidan ochiq ifoda etib bo'lmaydigan matn ostidagi ichki yashirin fikr"[62]; "propozitsiya vositasida oshkora qilinadigan hukm ichidagi hukm"[63] deb izohlanadi. Tagma'noning rus va polyak tillaridagi "podtekst" varianti "matn ichidagi matn", ingliz tilidagi "implied meaning" varianti "nazarda tutilgan fikr", nemis tilidagi "subtext" shakli "matn orasidagi fikr", fransuz tilidagi "non-dit" varianti "aytilmagan fikr", italyan tilidagi "senso nascocto" shakli esa "yashirin fikr" [64], degan ma'nolarda qo'llanishini kuzatdik.

D.Xudoyberganova esa o'zining sohaga oid terminologik lug'atida bu hodisaga nisbatan "hukm ichidagi hukm" atamasini qo'llaydi. Tagma'no hodisasiga nisbatan bunday nom ma'lum ma'noda to'g'riga o'xshaydi, ya'ni fikr ichidagi fikr yoki verbal ifodalanmagan fikr mazmunida hukm so'zi mantiqan asoslidek ko'rinadi. Biroq pragmalingvistikaga oid adabiyotlarda bu hodisa ancha oldin tagma'no termini bilan nomlangan va bizning nazarimizda, ilmiy jamoatchilik tomonidan bu termin qabul qilingan.

L.A.Golyakova tagma'no hodisasi bilan bog'liq fikrlar izohida boshqa olimlardan farqli ravishda hodisaga "...badiiy asar semantik strukturasining muhim komponenti"[65] deb qaraydi. Tagma'no ham poetik ifoda shakli sifatida muallifning o'ziga xos individual-uslubiy mahoratini ko'rsatuvchi hodisadir. Badiiy ijod

---

[62] Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 185-208, Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 94.

[63] Xudoyberganova D. Antroposentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Tubo nashr, 2022 – Б. 90.

[64] Поэтика: словарь актуальных терминов и понятий// https://studylib.ru/doc/2228662/poe-tika.-slovar._-aktual._nyh-terminov-i-ponyatij.-2008 (murojaat sanasi: 15.06.2023).

[65] Голякова Л. А. Онтология подтекста и его объективация в художественном произведении: Дисс. … д-ра филол. наук. – Пермь, 2006. – С. 8.

namunasi bo'lgan har qanday matnning mazmuniy yaxlitligi, estetik ta'sirchanligi, g'oyaviy jihatdan o'tkirligi, stilistik o'ziga xosligi uning mazmuniy mundarijasida namoyon bo'ladi. Aksariyat tadqiqotchilar uzoq davrlar mobaynida kitobxon tomonidan idrok qilinadigan tagma'noni estetik mazmuniy yaxlitlik sifatida e'tirof etib keldilar. Bunday qarashlar G.V.Kolshanskiy, V.A.Kuxarenko, N.A.Kupina, I.V.Arnold, I.R.Galperin, V.V.Odinsov [66] kabi tilshunoslar ishlarida ko'zga tashlandi. Shunga qaramay, tilshunoslikda tagma'no hodisasining tipologik va funksional xususiyatlari hali to'la ma'noda o'z yechimiga ega bo'lganicha yo'q.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli "Badiiy matnda tagma'no ifodasi va aynanlik" deb nomlangan. Ushbu faslda implikatsiyaga oid aynanlik tahlil etilgan. Badiiy matn mutolaasi jarayonida kitobxon asar syujeti va mazmunini sinchiklab kuzatib boradi, ijodkor tomonidan berilayotgan voqealar tasvirini to'la-to'kis anglaydi, asar mazmunini tushunib boradi, matnda berilgan oshkora va yashirin fikrlarni ilg'aydi. Albatta, bunday jarayon muallif va kitobxon o'rtasida bir-birini to'g'ri tushunish va anglash asosida yuz beradi. Adresant va adresat o'rtasidagi bir-birini teran anglash bilan bog'liq bo'lgan bunday jarayon tilshunoslikda aynanlik (adekvatlik) deb nomlanadi. "Mehrobdan chayon" asarida boshqalarning bilishi shart bo'lmagan hamda Anvar uchun qimmatli bo'lgan maslahat aktiga asoslangan fikrlar tagma'no usuli orqali ifodalanadi. Matn tarkibidagi *"Qiziq, "boqiy so'zni Shayxi Sa'diydan o'qursiz, deb xatni muxtasar qildim..." Bu jumla bilan nima demakchi? – Bu ham kinoya, – dedi Anvar, – **bundan so'ng menim to'g'rimda o'ylamay, bo'sh vaqtingizni Shayxi Sa'diy o'qub kechiringiz, demakchi bo'lsa kerak**. ..."* parchasi mazmuniga ko'ra Anvar xat matni mazmunini noto'g'ri idrok qiladi. Anvar tomonidan matn orqali berilgan propozitsiya tushunilgani holda, bu mazmun tarkibiga yashirilgan tagma'no assotsiatsiya qilinmaydi. Matn mazmunini noto'g'ri talqin qilish noadekvat assotsiatsiya hisoblanadi. Ra'no boshqalar bilishi mumkin bo'lmagan fikrlarini Shayx Sa'diy kitobi orasidagi ikkinchi maktubdan o'qishiga urg'u beradi. Bu yozuvchining o'ziga xos mahoratini ko'rsatadi. Muallif fikrlarni tagma'no orqali berar ekan, metonimik ma'no ko'chish usulidan unumli foydalanadi: *"...boqiy so'zni Shayxi Sa'diydan o'qursiz"* jumlasi orqali boshqalarning ko'rishi mumkin bo'lmagan xatni Shayx Sa'diyning kitobi sahifalari orasiga yashirdim demoqchi bo'ladi.

Matn mazmuniy strukturasi implikativ fikrlar bilan mukammallashadi. Biroq muallif kitobxonga aytmoqchi bo'lgan ayrim fikrlarini implikativ shakl bilan ifodalar ekan, ularning hammasini ham tinglovchiga hijjalab tushuntirib o'tirmaydi. Masalan:

Anvar so'zini tugata olmadi, mehmonxona eshigida maxdum ko'rindi:
– Ichkariga kir, Ra'no, bevaqt bu yerda nima qilib o'ltiribsan?!

---

[66] Колшанский Г.В. О природе контекста // Вопросы языкознания. – 1959. – № 4. – С. 47-49; Кухаренко В.А. Интерпретация текста. — Л.: Просвещение, 1979; Кухаренко В.А. Интерпретация текста. – М.: Просвещение, 1988; Купина Н.А. Структурно-смысловой анализ художественного произведения. – Свердловск: Изд-во Урал. ун-та, 1981; Арнольд И.В. Импликация как прием построения текста и предмет филологического изучения // Вопросы языкознания. – 1982. – № 4. – С. 83-91.; Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: КомКнига, 2007; Одинцов В.В. Стилистика текста. – М.: ЛИБРОКОМ, 2010.

Anvarning vujudi g'izz etib ketdi; qarshisida boyagicha o'tirgan Ra'noga "tur, jo'na" degan kabi ishorat qildi, lekin Ra'no qimirlamadi. Maxdum boshqa so'z aytmay, dahlizdan orqasiga qaytdi. Anvar juda ham og'ir tortgan edi. Haqiqatan ham, Maxdumning bu harakati aqlsizcha, ahmoqlarcha edi. Anvarga og'ir kelishini o'ylamay bu "buyruq" bilan Ra'noning kundalik odatini ma'n qilar ekan, har qachon o'z vaqtida o'ltirgan Ra'no go'yo bugun "bevaqt" o'ltirar edi. Bundan boshqa, Anvarga uchrashmay namoyishkor chiqib ketishi qandaydir yana bir ma'noni anglatgandek ham bo'lar edi (A.Qodiriy).

Ushbu kontekstda *nomahram* so'zi implitsit qo'llangan. Bu so'zsiz yuqorida aks etgan buyruqqa asoslangan propozitsiya yuzaga chiqmaydi. Solih maxdum *"Ichkariga kir, Ra'no, bevaqt bu yerda nima qilib o'ltiribsan?!"* jumlasi orqali propozitsiyada aynan *nomahram* so'ziga urg'u beradi. Muallif aytmoqchi bo'lgan tagma'nolar esa implitsit ma'no, tushuncha, bilim va fikrlar asosida namoyon bo'ladi.

Bobning uchinchi fasli **"Badiiy matnda tagma'no va implikativ paradigma"** deb nomlangan. Badiiy matn tarkibida muallif aytmoqchi bo'lgan va uning xohishiga ko'ra yashirilgan fikrlar bir necha sahifadan keyin ham ma'lum bo'lishi mumkin. Xususan, S.Ahmad fikrni tagma'noni ifodalashdan boshlaydi. Afandi bilan shayton o'rtasidagi muloqot jarayoni va uning tafsilotlari bilan bog'liq fikrlar nima uchun berilyapti deb taajjublanasiz. *Afandining shaytonga bergan topshirig'i va shaytonning oradan necha yuz yillar o'tib ketsa ham, bu topshiriqni bajara olmayotganligiga* urg'u beradi. Bu propozitsiya orqali Said Ahmad *badiiylikdan uzoq, tuzatib, epaqaga keltirib bo'lmaydigan* asarlar bo'lishi, buni asar mualliflariga tushuntirib bo'lmasligi, ularning adabiy layoqati hali shakllanmagan bo'lib, badiiylik degan tushunchani tasavvur qila olmasligiga urg'u beradi. Yuqoridagi tagma'noning javobi esa *"asar"i muhokama bo'lgan yigit soqoli ko'ksiga tushibdi hamki, beli bukchayib hassaga tayanib qopti hamki, yozuvchi bo'laman, deb shaytonga o'xshab hamon urinib yotibdi* tarzidagi obrazli ifodada aks etgan.

She'riy matnlarda tagma'noning qo'llanilishi, unga xos bo'lgan xususiyatlar to'g'risida L.Y.Ginzburg, I.Y.Mostovskaya, A.F.Losev, L.A.Novikov o'z asarlarida alohida munosabat bildirishgan[67]. She'riy misralar orqali ifodalangan fikrlarni mazmuniy sath birliklari tarkibiga singdirish, ayrim axborotni propozitiv strukturada oshkora ifodalash mumkin bo'lmaganligi uchun ham ularni kitobxon idrok qilishi mumkin bo'lgan darajada implitsitlashtirish, boshqa nozik fikrlarni mazmuniy sathning tubida ifodalash va poetiklashtirish muallifning o'ziga xos poetik mahoratini belgilaydi. E.Vohidov *"Qalbga istarsan shifo gar, bo'l yomon so'zdan yiroq"* misrasida yomon so'zni aytishdan saqlan, agar yaxshi so'z topolmasang, hech bo'lmaganda *kar va lol bo'lmoq kerak* xulosasini implitsitlashtiradi. Xuddi shunday fikr Sh.Rahmonda ham ko'zga tashlanadi:

---
67 Гинзбург Л. Я. О лирике. – М.: Интрада, 1997. – С. 357; Мостовская И. Ю. Существует ли подтекст в лирическом стихотворении? // Интерпретация художественного текста в языковом вузе: межвуз. сб. науч. тр. – Л., 1981. – С. 48-56; Лосев А.Ф. Проблема символа в связи с близкими к нему литературоведческими категориями // Известия АН СССР, серия литературы и языка. – 1970. – Т. XXIX. – № 5. – С. 385; Новиков Л. А. Художественный текст и его анализ. – М.: Едиториал УРСС, 2003. – С. 20.

Ko'zingni yum, quloqni berkit – kunduzdan-da yorug'dir yo'ling.
Bir kun kelib alqar-u seni yuksaklarga ko'tarar ko'rlik (Sh.Rahmon).

Misralarda ta'kidlangan *ko'zingni yum – ko'rlikka, quloqni berkit – karlikka* teng bo'lib, bunday propozitiv fikrlar orqali muallif tashqi dunyoda bo'layotgan noxush voqealarni eshitmaslik, ko'rmaslikka undaydi. She'riy matnlar adresatlar tomonidan xohlagancha talqin qilinishi mumkin. Bu ularning umumiy bilim fondlari bilan bog'liq. L.A.Novikovning ta'kidlashicha, "...har qanday matn o'z tagma'nosiga ega bo'ladi. Biroq ularning ifodalanish va shakllanish asoslari, ildizlari hamda ifoda vositalari janr, uslub va boshqa belgilariga ko'ra o'zaro farqlanadi". Har qanday badiiy matnda bo'lgani singari, lirik matnda ham "...kitobxon va tadqiqotchilarning idrok transformatsiyasi yillar davomida o'zgarib boradi. Tadqiqotchi va kitobxonning individual o'ziga xosligi, ularning tafakkurida yillar davomida shakllangan turlicha ijtimoiy va madaniy sharoitlar idrok transformatsiyasining asosi hisoblanadi" [68]. She'riy matnlarning idrok transformatsiyasi mazmuniy strukturadagi propozitsiyani ham, tagma'noga ishorani ham ifodalashga xizmat qiladi. Propozitsiya va u orqali ifodalangan tagma'no parallel tarzda anglanadi. Yuqori va quyi mazmuniy sath hamda har ikki strukturadagi fikrlar ham eksplitsit, ham implitsit qiymatga ega bo'ladi.

Bobning to'rtinchi fasli "Badiiy matn implikatsiyasi" deb nomlangan. Aynan bu masala bo'yicha ko'pchilik tilshunoslar tomonidan: "...tagma'no faqat badiiy matnga xos ifoda formasi" [69] dir, degan fikr e'tirof etiladi. D.V.Zatonskiy, E.V.Yermakova [70] lar badiiy uslubga xos tagma'no, N.Fateyeva, L.G.Kayda, V.V.Shapoval, A.A.Barisheva [71] lar esa publitsistik uslubga xos tagma'no, O.V.Zamorina [72] ilmiy matndagi tagma'no, A.A.Brudniy, T.V.Aliyeva [73] lar esa so'zlashuv uslubiga oid implitsitlik to'g'risida fikr yuritadilar. T.I.Silman, V.A.Kuxarenko, L.A.Golyakova, V.P.Belyanin [74] kabi olimlar esa badiiy matn

---

[68] Новиков Л. А. Художественный текст и его анализ. – М.: Едиториал УРСС, 2003. – С. 20.

[69] Затонский Д. В. Художественные ориентиры XX века. – М.: Сов. писатель, 1988. – С.52.

[70] Затонский Д. В. Художественные ориентиры XX века. – М.: Советский писатель, 1988. – 416 с; Ермакова Е.В. Имплицитность в художественном тексте (на материале русскоязычной и англоязычной прозы психологического и фантастического реализма). – Саратов: Изд-во Сарат. ун-та, 2010. – 200 с.

[71] Кайда Л.Г. Стилистика текста: от теории композиции – к декодированию. – М.: Флинта, 2005; Шаповал В.В. Имидж автора в публицистике: (роль сленговых и иных заимствований, маркированных как "чужое слово") // http://www.philology.ru/marginalia/shapoval20.htm#1 (murojaat sanasi 20.09.23); Барышева А.А. Имплицитность как свойство публицистического текста (на материале языка газеты): Дисс. … канд. филол. наук. – Уфа, 2016а. URL: http://www.bashedu.ru/ sites/default/files/dissovets_files/disrab/dissertaciya_baryshevoy_ a.i..pdf, Имплицитность как свойство публицистического текста (на материале языка газеты): Автореф. … дисс. канд. филол. наук. – Уфа, 2016, Имплицитность как свойство языковых единиц и категорий // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2014. – № 4 (34). – С. 38-40.

[72] Заморина О.В. Восприятие подтекста речевого произведения: на примере научных текстов: Автореф. дисс. … канд. психол. наук. – Пермь, 2005.

[73] Брудный А.А. Подтекст и элементы внетекстовых знаковых структур // Смысловое восприятие речевого сообщения (в условиях массовой коммуникации). – М., 1976. – С. 152-158; Алиева Т.В. Имплицитные языковые средства, участвующие в формировании концептуальной оппозиции "свой-чужой" в политическом дискурсе англоязычной прессы // Вестн. Москов. гос. областного ун-та. Сер.: Лингвистика. – 2010. – № 1. – С. 86-89.

[74] Сильман Т.И. Подтекст – это глубина текста // Вопросы литературы. – 1969. – № 1. – С. 89-102; Сильман Т.И. Подтекст как лингвистическое явление // Научные доклады высшей школы. Филологические науки. – 1969. – № 1. – С. 84-90; Кухаренко В.А. Интерпретация текста. – Л.: Просвещение, 1979; Голякова Л.А.

28

implitsit fikrlar uchun eng qulay bo‘lgan janrlardan biri bo‘lib, boshqa uslub matnlariga nisbatan fikrlarni implitsitlashtirish yoki implitsit bilim, ma’no va fikrlarga asoslangan mazmuniy strukturani aynan badiiy uslubda ifodalash implitsitlik kategoriyasini shakllantiradi, deya ta’kidlaydilar.

Badiiy “...publitsistika ham tagma’noning qisman mavjudligi bilan xarakterlanuvchi uslubdir. Bunday matnlarda qo‘llanuvchi tagma’no shu uslubning o‘zigagina xos bo‘lgan ifoda shakliga ega. U sintaktik vositalar yordamida shakllangan “oraliq tagma’no” (“сквозной подтекст” [75]) deb nomlanuvchi tagma’noning maxsus ko‘rinishidir”[76], degan qarash ham mazkur uslubda fikrlar implitsitlashtiriladi, tarzidagi xulosani beradi. Masalan, Ozod Sharafiddinov o‘zining “Til ilmining darg‘asi” nomli publitsistik maqolasida “*bu odam o‘ziga bino qo‘ygan bir oliftadek ko‘rindi, uni “**ha endi, bu kishi ham ko‘pgina tilchilarning bittasi-da, nima karomat ko‘rsatardi**” deb bepisandroq kutib oldik*” jumlasida muallifga xos implitsit fikrlar ko‘zga tashlanadi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Badiiy matnning quyi mazmuniy sathiga oid hodisalar”** deb nomlanadi. Mazkur bobning **“Badiiy matnning implikativ-semantik sathi”** qismida implitsit mazmuniy struktura tahlilga tortiladi. Ma’lumki, olamning konseptual manzarasi lingvistik vositalar ifodasi bilan olamning lisoniy manzarasini hosil qiladi. “...Botiniy strukturani konseptual jarayon, ya’ni borliq – predmet, voqealarning idrok etilishi va ularning ongli hazm etilishi jarayonida yuzaga keladigan hodisa sifatida talqin qilmoq kerak. Bu jarayonda yuzaga kelgan birlik – konsept haqiqiy ma’no birligiga aylanishi uchun u lisoniy qobiq olmog‘i darkor, faqatgina lisoniy “libos” kiygan konseptgina lisoniy faoliyat vositasiga aylanadi. Ma’lum mazmun ifodalovchi belgi sifatiga ega bo‘ladi. Shu sababli ma’no yoki semantikani lingvokognitiv hodisa sifatida qabul qilgan ma’qulroq”[77]. Mana shu qarash asosida fikr tafakkurga, ma’no tilga xos hodisa, degan xulosaga kelish mumkin. Til va tafakkur birligi hamda ularning uzviyligi, biri ikkinchisisiz mavjud bo‘la olmasligi haqidagi nazariyalar lingvokognitiv yo‘nalishning mohiyatini tashkil qiladi. Badiiy matn yoki badiiy nutq muallifi tafakkurida shakllangan g‘oya yoki fikrlar lisoniy vositalar yordamida moddiylashadi. Matn fikrning ifoda shakli hisoblanadi, uning mazmuni esa g‘oya va fikrlardan tashkil topadi, fikrlarning lisoniy moddiylashuvi natijasida mazmun shakllanadi. Bu mazmuniy struktura yaxlit holda ko‘zga tashlanib tursa-da, aslida u har qanday matn, ayniqsa, badiiy matnda o‘ziga xos oshkora va yashirin qismlardan tashkil topadi. Shuning uchun ham matn semantik strukturasi fikrlar ifodasining rang-barangligi bilan ajralib turadi. “Yashirin grammatik kategoriyalar”, “implitsit ifodalar” nomlari bilan o‘rganilayotgan semantik-sintaktik hodisalar tadqiqi ham shuni ko‘rsatadi”[78]. N.Mahmudov tomonidan

Онтология подтекста и его объективация в художественном произведении: Дисс. … д-ра филол. наук. – Пермь, 2006; Белянин В.П. Психолингвистика. – М.: Флинта, 2016.

[75] Лелис Е.И. Подтекст как лингвоэстетическая категория в прозе А.П.Чехова. – Ижевск: Удмуртский университет, 2013. – С. 40.

[76] Кайда Л. Г. Эффективность публицистического текста. – М.: Изд-во МГУ, 1989. – С. 44.

[77] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 30.

[78] Bu haqida qarang: Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986. – № 6. – Б.28.

to'g'ri ta'kidlanganidek, "yashirin grammatik kategoriyalar", "implitsit ifodalar" nomi bilan yuritilayotgan mazkur hodisalar keyingi davr antroposentrik tilshunosligiga oid pragmalingvistik tadqiqotlarning dolzarb masalalari sifatida e'tirof etilmoqda. Badiiy matnga xos implikativ-semantik sathga **implikatsiya**, **tagbilim yoki presuppozitsiya**, **tagma'no**, **inferensiya, allyuziya** kabi hodisalar mansubdir.

Bobning keyingi fasli **"Implitsitlik paradigmasida presuppozitsiyaning o'rni"** deb nomlangan. Matn semantik strukturasiga tegishli bo'lgan va yashirin ifoda xususiyati bilan namoyon bo'luvchi fikrlarning hammasini ham bir tipdagi hodisalar sifatida izohlash mumkin emas. Shunday hodisalardan biri presuppozitsiya bo'lib, u ham implitsit ifoda turlaridan biri sanaladi. Bu hodisa maxsus ilmiy adabiyotlarda inferensiyaning xususiy ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi... bundan tashqari, presuppozitsiya – yashirin hukm tagma'no bilan bog'liq ekanligini bundan yuz yillar oldin olmon mantiqshunosi G.Frege aytgan edi[79].

Gap yoki matn tarkibini semantik jihatdan murakkablashtiruvchi presuppozitsiya hodisasining ifoda shakli lisoniy vositalar bo'lganligi uchun u lingvistik nuqtayi nazardan hamda mazmuniy asosi logik kategoriyalarga borib taqalgani uchun mantiqshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganiladi. *Presuppozitsiya* atamasi lotincha *"prae"* – avvalgi va *"suppositio"* – taxmin (prezumpsiya) kabi ma'nolarni anglatib, lingvistik semantikaga tegishli hodisa sifatida izohlanadi[80]. Presuppozitsiya masalalariga oid ilmiy adabiyotlarda u "bilishning umumiy fondi", "oldindan bilishning majmui" sifatida tushuntiriladi. N.Mahmudov "...nutqiy kommunikatsiyaning to'g'ri va real amalga oshishi uchun kommunikantlar nutq momentiga qadar muayyan faktlar bilan tanish bo'lishi, umumiy vaziyat bilan bog'liq muayyan bilim xabardorlikka ega bo'lishlari lozim. Ana shu faktlar, bilimlar tilshunoslikda presuppozitsiya nomi bilan umumlashtiriladi" [81] deb ta'kidlaydi. Muayyan dalillar bilan tanish bo'lish va umumiy vaziyatga bog'liq bilimlardan xabardor bo'lish kommunikantlar tafakkurida implitsit ma'no, fikr va bilim mavjudligidan dalolat beradi. Bularsiz implikativ mazmuniy strukturani anglash mumkin emas. Gap mazmunini mantiq kategoriyalari asosida tahlil qilish, mazmun tarkibidagi bevosita ko'rinmas axborotlarni ajratish logikaga tegishli hodisa sanaladi.

Haqiqatan ham, fikrning mantiqiy asosi propozitiv struktura mohiyatida shakllanadi. Gap tarkibida ifodalanayotgan propozitiv hamda presuppozitiv axborotlar lingvistik belgilar orqali ifodalangani uchun ham presuppozitiv axborotni ifodalovchi vositalar semiologik paradigma orqali anglanadi. Presuppozitsiyani logik va semantik tushuncha, deb qarash hamda uni o'rganuvchi yo'nalishni sintaktika, deb nomlash belgi bilan belgi o'rtasidagi munosabatni aniqlash tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Shu ma'noda A.Nurmonov o'zining presuppozitsiya haqidagi qarashlarida "hukmdan kelib chiqadigan ishora" logik

---

[79] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 113-114.
[80] Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Сов.энцик., 1990. – С. 396.
[81] Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986, – № 6. – Б. 29.

presuppozitsiya, "gapdan anglashilgan implitsit propozitsiya" lingvistik presuppozitsiya hisoblanishini ko'rsatib o'tadi. Gap yoki matnning eksplikatsiyaga asoslangan propozitiv strukturasi tarkibidagi presuppozitsiya ifodalovchi vositalar kommunikantlar uchun notanish bo'lsa, u implikatsiya shaklidan tashqariga chiqariladi. Badiiy matn muallifi bu fikrni oshkora ifodalashga majbur bo'ladi. "...Muayyan bir gapning barcha presuppozitsiyalarini formal tasvirlash lozim bo'lsa, unda o'z-o'zidan tekst hajman kattalashadi. Nutq temasi bilan tinglovchi tanish bo'lmagan holatlarda zaruriy ravishda shunday qilinadi ham, ya'ni ayni nutq bilan bog'liq presuppozitsiyalar birin-ketin eksplitsit tasvirlanadi. Masalan, *Siz mendan yoshroqsiz, yengilroqsiz. O'rningizdan tursangiz. Xonaning chap qo'ldagi derazasi ochiq ekan. Tashqari sovuq, ichkariga deraza orqali sovuq kiryapti. Iltimos, borib shu derazani yopib qo'ying*"[82].

Bobning uchinchi fasli **"Lisoniy indikator va eksperimental tahlil"** deb nomlanadi. Gap yoki matn mazmuniy strukturasida presuppozitiv xabar lingvistik indikatorlar yordamida ifodalanadi. Lingvistik indikator funksiyasini prosodik, leksik hamda grammatik vositalar bajaradi. Gap yoki matn tarkibidagi presuppozitiv mazmuniy struktura ifodalashga xizmat qiluvchi lingvistik indikatorlar maxsus eksperimental tahlillar yordamida yana ham aniqroq izohlanadi. Buni prosodik sistemaning melodik, intensiv va temporal elementlarining eksperimental tahlili orqali ko'rish mumkin.

Gap yoki matn tarkibidagi presuppozitsiya funksiyasini bajaruvchi lisoniy indikator propozitiv strukturaga nisbatan belgilansa, u diktumga nisbatlanuvchi lingvistik presuppozitsiya, lisoniy indikator gapning modal strukturasiga nisbatan belgilansa, u modusga nisbatlanuvchi pragmatik presuppozitsiya, lisoniy indikator matnda ifodalangan xabarga nisbatan belgilansa, u nominativ birliklarga nisbatlanuvchi kommunikativ presuppozitsiya hisoblanadi.

Presuppozitsiya hodisasini ifodalashga xizmat qiluvchi lisoniy indikator gap yoki matnning propozitiv strukturasiga tegishli bo'lsa, u gap tarkibidagi asosiy xabarga nisbatlanuvchi qo'shimcha xabar mazmunini bildiruvchi struktura sifatida ajratiladi. Jumladan, "*Qumri bo'lsa, sizdan faqat salarkaning hidi keladi, derdi*" (Sharof Boshbekov, "Temir xotin") ifodasida *faqat* yuklamasi gapning propozitiv strukturasiga tegishli bo'lib, u lisoniy indikator funksiyasini bajaradi. Bu so'z aniqlov yuklamasi sifatida *hidning salarkaga tegishliligiga* nisbatan *bu odamdan salarkadan boshqa hid kelmaydi* kabi qo'shimcha ma'no ifodalaydi. Bu jumla mazmunida *salarkadan boshqa hid yo'q*ligiga ishora ko'zga tashlanadi. Mazkur jumlaning eksperimental tadqiqi ham o'zaro muloqotning melodik harakatida qo'shimcha xabar ifodalovchi so'zning deyktik funksiyasini ko'rsatadi. Melodika ifoda ohangi uchun asos bo'lib, u *boshqa yoqadigan hiddan asar ham yo'q* mazmunidagi xabarni ifodalaydi[83*]. Darak mazmuniga asoslangan "*sizdan faqat salarkaning hidi keladi*" propozitsiya mazmuni *faqat* yuklamasi orqali "boshqa hid yo'q" kabi qo'shimcha mazmun ifodalaydi. Gap tarkibidagi propozitsiya

---

[82] Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. – № 6. – Б. 31.
[83*] 1-diagramma ilovada beriladi.

mazmuniga qo‘shimcha tarzda yuklanayotgan xabar mazmuni *faqat* so‘ziga mantiqiy urg‘uning tushishi bilan belgilanadi.

“Qumri bo‘lsa, sizdan faqat salarkaning hidi keladi, derdi” jumlasining intensiv harakati diagrammasida mantiqiy urg‘u olayotgan bo‘lak *faqat* yuklamasi bo‘lib, uning akustik miqdori 81.9 db ni tashkil etadi. Bizga ma’lumki, gap tarkibida mantiqiy urg‘u olgan bo‘lak mavjud propozitsiya asosida mantiqiy presuppozitsiyani shakllantiradi. Yuqoridagi jumlada mantiqiy urg‘uning *faqat* so‘ziga tushishi unga ta’kid berish orqali *salarkaning hidi* bo‘lagiga ishoradir. Bu bilan *salarkaning hidi*ga zidlanuvchi axborotga ishora qilinadi[84]*.

